**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI**

**RESPUBLIKA METODIKA VA AXBOROT MARKAZI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT MADANIYAT INSTITUTI**

NIYOZALI ORTIQMATOV



# JAMOA IJROCHILIGI VA USLUBIYOTI

Oliy o‘quv yurtlari uchun
o‘quv-metodik qo‘llanma

**Toshkent - 2008**

*Ushbu o‘quv-metodik qo‘llanma Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat instituti ilmiy kengashining 2008-yil 28-apreldagi 8-raqamli yig‘ilishida muhokama qilindi va nashrga tavsiya etildi.*

«Jamoa ijrochiligi va uslubiyoti» o‘quv-metodik qo‘llanmasi madaniyat va san'at oliy o‘quv yurtlari bakalavr yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan. Ayni paytda o‘quv-metodik qo‘llanmadan musiqa, san'at, madaniyat va pedagogika institutlari talabalari hamda madaniy–ma'rifiy muassasalar qoshida tashkil etilgan jamoalari ham o‘quv, ish jarayonida foydalanishlari mumkin.

**Mas'ul muharrir:**

**Musaqulov A.** – filologiya fanlari doktori

**Taqrizchilar:**

**Mamirov Q.** - Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti professori

**Nosirov R.H.** - Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat instituti “Vokal jamoalariga rahbarlik, musiqa tarixi va nazariyasi” kafedrasi dosenti, filologiya fanlari nomzodi

**Asarlarni notaga oluvchi:**

**Shukurov J.T.** – Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat instituti “Vokal jamoalariga rahbarlik, musiqa tarixi va nazariyasi” kafedrasi dosenti, O’zbekiston Respublikasi san`at arbobi



# SO‘Z BOSHI

Qo‘shiq - xalq lirikasining tarixiy asoslariga ko‘ra eng qadimiy ijod va ijro xarakteriga ko‘ra eng ommaviy ko‘rinishidir. O‘zbek xalqi qo‘shiqni shakllantirgan kuy va so‘z tarixini Odam Ota bilan bog‘lab:

Soz bilan suhbatni yolg‘on demanglar,
Odam Ota bino bo‘lgandan bordir.
Obil bilan Qobil ena qornida
Ular yer yuziga kelgandan bordir, -

kabi termalar yaratgan. O‘zbeklar qo‘shiq deganda, umuman xalq she'riyatini tushunishgan.

O‘zbek folklorshunosligida qo‘shiqlar, ayniqsa, ulardagi kuy va so‘z uyg‘unligi, bir-biriga nisbati juda kam o‘rganilgan.

Ma'lumki, “***folklor***” so‘zi birinchi marta 1846-yilda ingliz olimi Vilyam Tomson tomonidan ilmiy iste'molga kiritilib, uning lug‘aviy ma'nosi “***xalq donoligi***” demakdir. Ammo bugungi kunda xalqaro ilmiy atama sifatida uning ma'nosi juda keng. Masalan, Angliya va AQSHda folklor deyilganda–xalq she'riyati, nasri, musiqasi, raqsi, rassomlik, diniy e'tiqodi, amaliy sa'nati, hatto binolarning an'anaviy qurilishigacha tushuniladi. O‘zbek folklorshunosligida folklor so‘z sa'nati sifatidagina qabul qilingan. Biz xalq sa'natining boshqa sohalarini – musiqa folklori, xalq tomosha sa'nati, xalq xoreografiyasi atamalari bilan ifodalaymiz. Bu, bir tomondan, tadqiqotchi uchun tadqiq doirasini aniq chegaralab olishga ma'lum bir imkoniyat bersa, ikkinchi tomondan materialni ilmiy aniq tahlil qilish, tabiatini belgilashda qiyinchiliklar tug‘diradi. Bunday ziddiyat, ayniqsa, xalq qo‘shiqlari tadqiqida ravshan ko‘rinadi. Chunki uning tabiatini kuy va so‘z birligisiz to‘liq tushuntirib bo‘lmaydi. Qo‘shiqda kuy va so‘z birligi bir paytning o‘zida namoyon bo‘ladi. Kuy so‘zsiz ham bizga estetik zavq berishi, qandaydir taassurotlar uyg‘otishi mumkin. Ammo unda ma'no bo‘lmaydi. Qo‘shiq estetik zavq va semantik ma'no birligini yuzaga chiqaradi.

O‘zbek qo‘shiqlarining yetuk bilimdoni M.Alaviya ishlarida qo‘shiqlarning musiqaviy jihatlari, masalan, yor-yorlarning ikki xil ohangda kuylanishi haqida qaydlar mavjud. Shuningdek, musiqa folklorining janrlari haqida ham qator ishlar qilingan. Biroq ular har biri o‘zicha mustaqil bo‘lib qolgan. Qo‘shiqlarning musiqasi, notasi va unga ilova tarzida matnlarning berilishi akademik Yu.Rajabiyning ko‘p tomlik «O‘zbek xalq musiqasi» monumental asaridan boshlanadi.

Niyozali Ortiqmatov ana shu yo‘nalishni rivojlantirib, xalq qo‘shiqlarining tarixi, tabiatini yoritishda musiqa va so‘z birligidan, aniqrog‘i ritmik-musiqaviy va ritmik so‘z uyg‘unligidan kelib chiqib izlanayotgan yosh olimdir. Uning tadqiq metodi qo‘shiqni so‘z va kuy birligidan kelib chiqib o‘rganishi bilan xarakterlanadi. Musiqa va so‘z folklorini uyg‘unlashtirgani bilan yangilik kasb etadi.

Hozirgi kunda Niyozali Ortiqmatov Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat instituti “Vokal jamoalariga rahbarlik, musiqa tarixi va nazariyasi” kafedrasida o‘qituvchi lavozimida faoliyat olib boradi. Shu bilan bir qatorda Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti aspiranti. Ushbu o‘quv-metodik qo‘llanmasi uning jiddiy ishidan bir tajriba bo‘lib, u madaniyat va sa'nat instituti talabalarining xalq qo‘shiqlarini tushunishlari va o‘rganishlarida yaqindan yordam beradi, deb hisoblayman.

**A. Musaqulov**
**filologiya fanlari doktori**

# KIRISH

Respublikamiz istiqlolga erishgandan so‘ng ko‘p asrlar mobaynida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ulkan ma'naviy va madaniy merosimizni qayta tiklash asosiy masalalardan biriga aylandi. Qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milly dasturi”dan kelib chiqqan holda o‘zbek xalq madaniyatini va ma'naviyati tarixini, ayniqsa uning musiqa madaniyati tarixini o‘rganishga alohida e'tibor qaratila boshlandi.

Xalqaro miqyosida har ikkida Samarqand shahrida o‘tkazilayotgan “Sharq taronalari” xalqaro musiqiy festivali, Respublika miqyosidagi “Nihol”, “Kelajak ovozi” tanlovi, har yili o‘tkazilayotgan “O‘zbekiston – Vatanim manim” ko‘rik-tanlovlari yoshlarimizning milliy san'atimiz va musiqiy merosimizni qiziqib o‘rganishlariga keng yo‘l ochib bermoqda.

Yurtboshimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov “Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch” asarida ta'kidlaganlaridek:

*“Insoning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, albatta bu maqsadga musiqa san'atisiz erishib bo‘lmaydi. Xalqimiz hayotida musiqa azaldan beqiyos o‘rin tutib keladi. . . Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi. . . Barchamizga ayonki, kuy-qo‘shiqqa, san'atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor, doira yoki boshqa cholg‘u asbobi bo’lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta'sirini o‘z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi”.*

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o‘zbek xalq musiqa merosi boy va serqirradir. Unda mujassamlashgan rang-barang xalq musiqiy namunalari asrlar osha avloddan-avlodga o‘tib rivojlanib kelgan. Shu bilan birga xalqimiz tomonidan har bir janrning badiiy va estetik qimmati asrab-ardoqlanib kelingan. O‘sib kelayotgan yosh avlodni ruhiy va ma'naviy jihatdan mustaqil hayotga tayyorlash, ularni ongini milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitishda milliy musiqamizning, san'atimizning hamda musiqiy lisey, kollejlar va maktablarning xizmati katta ekanligini alohida ta'kidlab o‘tmog‘miz maqsadga muvofiqdir. Professor-o‘qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchi va talabalarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, o‘z oldilariga qo‘ygan asosiy maqsadini tushuntirish, har bir musiqiy asarning badiiy g‘oyasini to‘g‘ri

ochib berish, ijro vositasi bilan tinglovchiga etkazishni o‘rgatish, har bir asarni o‘rganish jarayonida jiddiy yondashishga undash, muntazam ravishda o‘z ustida mustaqil ishlashga o‘rgatishdan iboratdir.

So‘zning, matnning intonasion, ritmik yaxlitligidagi noaniqlik, ba'zan so‘z bo‘g‘inlarining noto‘g‘ri bo’linishi ijro qilingan jumlani ma'nosini idrok etishni qiyinlashtiradi. Musiqashunoslikda so‘z va kuyning mustaraklik muammosi nutq ritmining musiqada aks ettirilishi va nutqiy hamda musiqiy ohang o‘rtasidagi aloqalar bilan bog‘ligidir. Matnni kuy bilan bog‘lashda e'tiborni ohangga, pauzaga, mantiqiy urg‘uga qaratish kerak. Shunda o‘zbek tili talaffuzining xususiyati, uning o‘ziga xos ohangdorligi muhim fonetik vositalar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Bastakor va kompozitorlarining bu yo‘nalishdagi yutuqlari milliy o‘zbek musiqasining rivojida ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi.

Ushbu o‘quv-metodik qo‘llanmaning vazifasi jamoa ijrochiligini rivojlantirish, talabalarning milliy klassik san'atimizni o‘rganib borishlari va milliy musiqa merosimizning xazinasini yanada boyitib, asrab-avaylab kelajak avlodga etkazib berish maqsadida yaratildi.

Xalq ijodiyotiga mansub barcha qo‘shiqlar o‘zining yaratilish tarixi va o‘ziga xos ijro uslubiga ega bo‘lib, turli mavzu va mazmun kasb etadi. Ushbu o‘quv-metodik qo‘llanmaga avvalo mehr-oqibat, sevgi-muhabbat mavzulari bilan bog‘liq qo‘shiq namunalari kiritildi. Sevgi insonga berilgan buyuk ne'mat. Xalq qo‘shiqlari, xususan uning lapar, aytishuv va yalla kabi janrlarida ushbu mavzu yanada teran ifodalangan. Aytuvchi bu nozik kechinmalarni qay darajada his etib, uni o‘z ijrosida to‘liq namoyon qila bilsa, tinglovchi shunchalik zavq-shavq tuyadi. Binobarin, ishq muhabbat mavzusidagi barcha xalq qo‘shiqlarini yaratilishi albatta oshiq insonlarning ijod mahsuli ekanligi shubhasizdir. Aks holda xalq orasida *“suygan qo‘shiqchi, kuygan baxshi”* kabi iboralarni yashab kelishiga asos topilmas edi. Lirik qo‘shiqlar matnini o‘rganish bu qo‘shiqlarni faqat muhabbat tuyg‘usini his qilgan shaxslar yaratgan degan xulosaga olib keladi.

Ariq bo‘yi gul hovuz (ey), omon yor,
Gul tergani kelganmiz (ey), omon yor.
Gulni bahona qilib (ey), omon yor,
Yor ko‘rgani kelganmiz (ey), omon yor.

Mahbubasi ishqida, vaslida yonayotgan ko‘ngilning dil izhori bu.

O‘quv-metodik qo‘llanmada berilgan barcha qo‘shiq namunalari xalq orasida azaldan ijro etib kelingan. Ularning ba'zilari to‘y-bazmlarda, ba'zilari esa xalqning qaysidir marosimlari bilan bog‘liq holda yaratilgan va ijro etilgan.

O‘zbek **s**an'ati mo‘jizalarni kashf etgan. Bu gulzor-u bog‘ aro Komiljon Otaniyozov, Otajon Xudoyshukurov, Ma'murjon Uzoqov, Fattohxon Mamadaliyev va yana ko‘plab bu nomlarni davom ettirish mumkin. Ma'naviyati, ma'rifati, madaniyati va san'ati barq urgan xalq doim oldinga intiadi. Bugungi kunda milliy kuy, qo‘shiq ayniqsa an'anaviy uslubdagi ijro yo‘llarini o‘rganish, uni har xil yo‘lda bezak berib sayqallash dolzarb masalalardan biridir. Har bir kuy, qo‘shiq, ohang har inson dilini xushlaydi, uni yorug’lik va ezgulik sari yetaklaydi. Haqiqiy san'at hech qachon o‘lmaydi.

Ushbu o‘quv-metodik qo‘llanma madaniyat va san'at oliy o‘quv yurtlarining bakalavr yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan. Qo‘llanmada berilgan har bir qo‘shiq namunasi o‘zining izohi, musiqiy tahlili va ijro etish uslublari haqida  tavsiyalar keltirilgan.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib tayyorlangan ushbu o‘quv-metodik qo‘llanma madaniyat va san'at oily o‘quv yurtlarining bakalavr yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan. Qo‘llanmada berilgan har bir qo‘shiq namunasi o‘zining izohi, musiqiy tahlili va ijro etish uslublari haqida tavsiyalar keltirilgan.

# ASARLARNING QISQACHA TAHLILI

## Poyezd kelodi shoshib

Namanganlik qizlar go‘zal va zamonasiga munosib bo‘lishini ta'riflab kuylangan bu qo‘shiq Farg‘ona vodiysida, ayniqsa Namangan viloyatida qizlar tomonidan ijro etiladi.

“Poyezd kelodi shoshib” deya kuylayotgan qiz kimningdir yo‘liga intizor. Qiz “qizil gul bo‘ldim so‘ldim”-deya o‘z yorining diydorini ko‘rish hasrati ila o‘rtanayotganiga, sevsang bir yo‘qlab holimdan xabar olmaysanmi deb yorni bevafolikda ayblashiga ishoradir. Mahbuba naqarotda “Gulshan gullar guliman”–deb kuylab o‘z yoriga vafosini ifodalagan. Yorini sabr-bardosh bilan kutishi natijasida u bir kuni qaytib kelib hol so‘rashi aytilgan. Olma va behi suvda qalqib oqib kelishi sevgiga vafodor bo‘lish, sevgan kishisiga etishish ma'nosini bildirgan.

Ushbu qo‘shiq ayollar ovoziga mo‘ljallab ijod etilgan bo‘lib, ovozini mayin va tekis bo‘lishiga yordam beradi. Xonandadan yaxshi talaffuz, yaxshi nafas va ovozni zo‘riqtirmasdan ijro etishni talab etadi. Qo‘shiqdagi undov takrorlarini yoqimli kuylash kerak.

## Omon yor

“Omon yor” qo‘shig‘i asosan Farg‘ona vodiysida ijro etiladi. Qo‘shiqda qizlar inson dilini quvontiradigan chiroyli qizil gulga o‘xshatiladi.

Aytuvchilarning imkoniyatiga ko‘ra, bu qo‘shiq ikki band yoki undan ortiq bo‘lishi, naqarotda Andijon, Marg‘ilon kabi hudud nomlari o‘zgarib kelishi ham mumkin. Qo‘shiqdagi ayrim so‘zlar aytish jarayonida o‘zgarsa ham, qo‘shiqning jozibasi, asl ma'nosi saqlanib qoladi. Masalan, “Jon ukam”, “Oh ukam”, “Voy ukam” kabi variantlarda ham kuylanadi. “Saning shirin so‘zingdan” iborasi esa takror aytilganda “Saning shahlo ko‘zingdan” deb ijro etiladi.

Bu qo‘shiq xalqimiz orasida eng keng tarqalgan va sevib ijro etiladigan qo‘shiqlardan biri hisoblanadi.

O‘zbek xalq qo‘shiqlaridan bo‘lgan “Omon yor” ijrosida uncha katta diapozon talab qilmasa-da, lekin ko‘tarinki ruhda, ravon, to‘liq ovozda kuylash kerak. Qo‘shiqni yuqori tovushdan pastki tovushga qarab kuylashda aytib o‘tganlarimizga ahamiyat berish xonandani jarangdor va aniq talaffuzga ega bo‘lgan holda kuylashga undaydi.

## Doirani chaling

Bu qo‘shiq muayyan bir marosim va bayramlarda bir guruh ayollar tomonidan kuylanadi. Unda yosh qizlar va ayollar o‘zlariga oro berib, yasan-tusan qilganliklari, buning sababi keng nishonlanadigan “Navro‘z bayrami” ekanligi ta'kidlanadi. Navro‘z kunlari qiz bolalar chuchmomolardan sochpopuklar taqib, qoshlariga o‘sma qo‘yib, o‘zlariga oro berishgan. Navro‘z taomlaridan yalpiz somsa pishirilib yoshi ulug‘ momolarga tortiq etilgan. Ular bahorga eson-omon etkazganiga shukur qilib, omonlik-somonlik tilashgan. Yoshlar sho‘x kuy-qo‘shiqlar kuylab, o‘yinga tushgan. Navro‘z bayramini quvnoq kayfiyatda kutib olishgan.

Bu qo‘shiq  ham ayollar ovoziga mo‘ljallab yaratilgan. Qo‘shiq naqarot bilan boshlanadi. Keyingi bandlar xonandadan yaxshi nafas, to‘liq va ravon ovoz bilan ijro etishni talab etadi. Ijro paytida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va ovozni zo‘riqtirmaslik talab qilinadi.

## Chechalar

Xalq poetik she'riyatiga mansub asarlar bo‘lgan qo‘shiqlarda inson kechinmalari aks etadi. Bir qator lirik qo‘shiqlar yigit va qizlarning aytishuvlaridan iborat bo‘lishi mumkin. Bu qo‘shiqlarda iloji boricha yigitlar bir taraf, qizlar bir taraf bo‘lib so‘z o‘yinida bir-birlaridan g‘olib kelishga urinadilar. Aslini olganda bunday aytishuv qo‘shiqlari yigit-qizlarga hayot go‘zalligi, zavqi haqida, va ulardan bahramand bo‘lish haqida ma'lumot beradi.

Bu qo‘shiqda ham chechalar-yangalar doimo xizmatga shay, ko‘tarinki kayfiyatda yurishlari, shu bilan birga yangalar ko‘pincha sho‘x-shaddod bo‘lishlari aks etgan. Davra to‘ridagi yigitlar ham yangalarga bas kela oladigan bo‘lib, bellarini mahkam bog‘lashlari – aytishuvga tayyor turishlari lozimligi haqida so‘z boradi. Yigitlarning baland tog‘lardan surmalarni saralab terib kelganliklari, uzoq safardan qaytayotgan yigitlarning qorasi ko‘rinsa, qizlarning devor osha mo‘ralab qarashganlari, yigitlarning esa ularga albatta, gap otishganlari, shundan savol-javob aytishuvlari boshlangani mohirona kuylanadi. Qizlar noz qilib, gapimiz yoqmasa, surma bersangiz qaytamiz deya javob qilishadi.

Yigitlar va ayollar ovoziga moslab to‘qilgan qo‘shiq temp xususiyatidan kelib chiqib, xonandalarni so‘zlarni burro, ravon va to‘g‘ri talaffuz qilishga undaydi. Naqarot qismidan boshlangan qo‘shiq band

bilan davom etadi va yigitlar ijro etadi. Ikkinchi bandda esa qizlar yigitlarning so‘zlariga javob tariqasida ijro etishadi.

## Yor – yor

O‘zbek xalqining oilaviy marosimlarida, to‘ylarida o‘lan, yor-yor aytilgan. Yor-yorlar matni bilan tanishar ekanmiz, ularda yosh oilaning kelajakda baxtli bo‘lishi, kelin-kuyovning bir-biriga sadoqat bilan umr kechirishga umid bildirilganligiga guvoh bo‘lamiz. Yor-yorlarda yigit va qizning yangi hayot bo‘sag‘asiga qadam qo‘yayotgani alohida ta'kidlanadi. Turmush totuvlikdan boshlansa, inoqlik etakchi bo‘lsa, keyingi hayot ham farovon o‘tishligi ko‘rsatiladi. Shuning uchun kelin-kuyovning inoq turmush boshlashi qo‘shiqlarda qayta-qayta tilga olinadi.

Shuni ham aytib o‘tish joizki, bevosita to‘yning o‘tkazilish sharoitini ko‘z oldimizga keltirsak, chor-atrofda o‘yin kulgularga e'tiborning kuchliligini nazarda tutsak, yor-yorlar aks ettirilgan qayg‘u-alamlar to‘y ishtirokchilariga u qadar katta ta'sir ko‘rsatmasligi ham o‘z-o‘zidan ravshan bo‘ladi:

Hay-hay o‘lan (o), jon o‘lan,
Qizlar kelar yor (a), qizlar kelar (o) yor-yor.
Kelinchakning(o) ko‘zlari,
Yoshga to‘lar yor (a), yoshga to‘lar(o) yor-yor.

Marosim qo‘shiqlarida yor-yorlar badiiy jihatdan mukammalligi bilan boshqa qo‘shiqlardan ajralib turadi. Xususan, yor-yorlarda parallelizm, tazod san'atlari ko‘proq uchraydi. Parallelizmda bir voqea-hodisani ikkinchi bir voqea-hodisaga qiyoslansa, tazod bir voqea-hodisa ikkinchisiga qarama qarshi qo‘yilib harshilantirilgan holda qo‘llaniladi:

Hay-hay o‘lan, jon o‘lan (o), gul qayda bor,
Yor-yora, gul qayda bor.
Bir yaxshiga bir yomon (a), har joyda bor,
Yor-yora, har joyda bor.

“Yor-yor” qo‘shig‘i respublikamizning har bir joyida, ayniqsa, qizni boshqa xonadonga kelin qilib olib ketayotgan paytda ijro etiladi. “Yor-yor” qo‘shig‘ida bo‘lajak kelinni, kuyovni va uning xonadonini, kelinni sepini, ota-onasini rozi bo‘lishligini va shu kabi ko‘plab mavzular tasvirlanadi. Yor-yorlarni faqat ayollar ijro etishini ham alohida ta’kidlash lozim

Shularni inobatga olib ushbu qo‘shiq xonandalarni chiroyli va mayin ovoz bilan, har bir so‘zni maromiga etkazib, to‘g‘ri va ta'sirchan xolatda kuylashga undaydi. Albatta, kuylash jarayonida ovozni zo‘riqtirmasdan, to‘g‘ri nafas bilan kuylash kerak.

Yor-yor qo‘shiqlarining qofiyalanish tarzi ko‘pincha a-b-a-b, ba'zan esa a-b-v-b tarzida bo‘ladi.

## Vohey bola

Qo‘shiqning ushbu varianti Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanida ijro etilib kelingan. Qo‘shiqda xalqimizning bayramlarga, to‘ylarga boy ekanligi, to‘ylarda yoshu keksa birdek quvonch va shod-xurramlikda yurishlari kuylangan. To‘ylar ko‘p bo‘lishi xalqimizning tinch, osoyishta, baxtli hayot kechirishlaridan darak berishi, Dehqonobod bog‘larida to‘y tomoshalar ko‘p bo‘lishini tilash, olqishlar yog‘dirish, keksa va yoshi ulug‘larni hurmat qilib, ularga xizmat qilib charchamaslikka undalgan.

Ushbu qo‘shiq yigitlar va ayollar tomonidan ijro etiladi. Bandlarni yigitlar, “vohey bola yorey” so‘z takrorini esa ayollar kuylaydi. Qo‘shiq tempi tez bo‘lganligi kuylash jarayonida ham yigitlar, ham ayollardan so‘zlarni aniq talaffuz, ravon va to‘liq ovoz bilan ijro etishni talab qiladi.

## Yallijonim yalla

Qo‘shiqda bahor faslidagi uyg‘onishning dillarga ko‘chgani kuylangan. Gullar terib o‘z sevgan yoriga berish, uning oydek jamolini har kun ko‘rish zavqi ifodalangan. Ko‘nglidagi yor diliga yo‘l topishga harakat qilayotgan oshiq, uning nozidan, injiqliklaridan hayron. Yorga so‘zi o‘tmasligidan hasrat chekib, yonib kuylamoqda.

Ushbu qo‘shiq ayollar tomonidan shoshilmasdan, qo‘shiq matnlaridan ilhomlanib, ijroga sayqal berib, jarangdor va to‘liq ovozda ijro etiladi. Ijro davomida to‘g‘ri nafas olib va undan foydalangan holda chiroyli va ta'sirchan ovoz hosil qilishga harakat qilinadi. Uchinchi bandning uchinchi qatori kuylanganda musiqasiz ovozning o‘zi bilan ijro etiladi. Shu vaqt xonanda ovozining chiroyini va ta'sirchanligini ko‘rsata olishi kerak.

## Usta Rashid temirchi

Ushbu namuna mehnat qo‘shiqlari sirasiga kiradi. Temirchi usta sharafiga yaxshi tilaklar, ustaning ishiga muvafaqqiyatlar tilashadi.

Temirchi usta turli asboblar – tok qaychi, o‘roq, ketmon yasab, kishilarni og‘ir mehnatlarini yengillatishga hissa qo‘shadi. Bahor oyi barcha uchun ishning qizg‘in pallasi hisoblanib, temirchi ustaning ham buyurtmalari ko‘paygan davr. Buyurtmalarni o‘z vaqtida bajargan usta mehnati kishilar tomonidan olqishlanib, rahtamlar aytiladi.

Qo‘shiq yigitlar uchun mo‘ljallab yozilgan. Qo‘shiqni yakkaxon xonandalar bilan birga yigitlar jamoasi ijro etadi. Ikkinchi va uchinchi bandlarida yakkaxonlar ijro qiladi. Qolgan bandlarni esa jamoa birgalikda kuylaydi.

Yakkaxonlar aytish jarayonida kvarta intervali oralig‘idagi notalarni to‘g‘ri va toza ijro etishi kerak. Buning uchun albatta, to‘g‘ri nafasdan foydalanish lozim bo‘ladi. Bu eslatma jamoa xonandalari uchun ham ta'lluqlidir. Chunki yakkaxonlar ijro etgandan so‘ng jamoa ham takrorlaydi.

## Soch popuk

Soch popugim uchida (yo), ko‘zmunchog‘im bir shoda,
Yig‘lamagan qiz bormu (yo), bu bevafo dunyoda.

Qo‘shiq bo‘yi yetgan qiz tilidan aytilayotgan bo‘lib, husn-u latofatda, go‘zallikda tengi yo‘q, ko‘zga yaqin bo‘lgan qiz ko‘ngil qo‘yganiga yetolmasdan bu bevafo dunyodan nolish qiladi.

Qizlarning ko‘zmunchoqli sochpopuk taqishi – go‘zalligidan darak bersa, o‘choq boshi va baland devor bilan o‘ralgan qo‘rg‘on esa qizni o‘z erki qo‘lida emasligiga, ko‘ngli tilaganiga yetolmasligiga, ota-onasi qizni o‘zlari xohlagan kishiga berayotganligiga ishora qilinadi.

Tor hovli, katta tol va uning soyasi yosh go‘zal qizga qarama-qarshi qo‘yilgan timsol bo‘lib, yoshlik, go‘zallik hamisha oftobni, kengliklarini qo‘msaydi. Bunga yetolmasa dunyoning bevafoligidan yurak-bag‘ri eziladi va qonga to‘ladi.

Uncha katta bo‘lmagan bu qo‘shiq ayollarni so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga, to‘g‘ri nafasdan foydalanib kuylashga, to‘liq, chiroyli ovoz bilan shoshilmasdan kuylashga undaydi.

O‘z navbatida xonandalardan xushchaqchaqlik, ovozni to‘liq va baralla qo‘yib ijro etishni talab qiladi.

Qo‘shiqning so‘ngi bandi va misralarini yigitlar ijro etadi.

## Yallo samandaro

"Gul" – go'zallik ramzi bo'lganligi uchun ham xalq qo'shiqlarida qizlar gulga, nozik niholga o'xshatiladi. Ayni matn mazmunida qiz qoshlarining qaroligi math etilsa-da, bog'bon gulni qanchalar ehtiyot qilib parvarish qilganidek, ota-ona ham o'z farzandini shunchalik avaylab voyaga yetkazishi, ulg'aygan qizni esa so'rab kelgan har qanday yigitga uzatmasligi, uning ota-onasini, nasl-nasabini so'rab-surishtirilishi yoritilgan. Yigit qizni sevish yo'lida qanchalik qalandar bo'lmasin, lekin qizning ota-onasi rozi bo'lmasa, unga yetishish amri mahol. Shuning uchun matnda keltirilgan "qora qosh"ning orqasidan yigitning boshiga anchagina balo kelishi va unga davo izlab o'zini har yonga urmasin, davo topishi mushkulligi aytiladi.

Ushbu xalq qo'shig'i yigitlar ovozlari uchun yaratilgan. Naqarot va banddan iborat ushbu xalq qo'shig'i ijroda yigitlardan juda katta talant va mahorat talab etadi. Chunki ijro vaqtida ovozni zo'riqtirmasdan, yengil, ravon, so'z talaffuziga, undov takrorlariga ahamiyat bergan holda kuylash kerak.

## Dutor chalib

Bu qo'shiq yor sog'inchi, hijron azobi dilini o'rtayotgan qiz tomonidan kuylanadi. "Dutor" yorini sog'ingan qiz qalbini timsolini ifodalagan. Qo'shiqda dutor torining uzilib ketishi esa, qiz qalbini azobga, qiynoqqa soladigan, sevgan yorining "o'zga yor"i borligiga ishora sifatida keltiriladi. Bu esa qizni yanada o'rtanishini, g'am-alam chekishini ko'rsatadi. Qiz ko'nglini o'rtagan dard-alamni unutish uchun o'zini mehnat bilan ovutadi.

Fabrikaning yo'lidan ro'molcha topib olish – bu hijron azobida qolgan qiz o'z his-tuyg'ularini qalbida saqlagan holda mehnat qilayotganini ifodalaydi. "Ro'molcha" – qiz qalbidagi his-tuyg'ular, orzu-istaklar ifodasi timsolidir.

Qadimdan qiz o'z qalbidagi tuyg'ularini ro'molchaga gul solish, kashta tikish orqali ham ifodalab, sevgan yoriga tortiq qilgan. Bu bilan yigit sevgisiga rozi-rizoligini bildirgan.

"Dutor chalib" - o'zbek xalq qo'shig'i kuyining yoqimliligi va yengil ijro yo'li bilan xarakterlidir.

Qo‘shiq ayollar ovozi uchun mo‘ljallab yaratilgan bo‘lib, birinchi va ikkinchi bandlar sekin tempda, uchinchi va to‘rtinchi bandlar esa tez tempda ijro etiladi. Qo‘shiq ijrosida ham undov takrorlar, ham qator takrorlari ishlatilgan. Ushbu takrorlarni ijro etishda xonandadan e'tiborlilik, mayinlik, chiroyli ovoz hosil qilishlik mahorati talab etiladi.

Qo‘shiqning oxiri esa yana sekin tepmda ijro etilib, yakunlanadi.

## Seni sevib qoldim

Qora qosh – go‘zal qiz timsoli. Qo‘shiqda Layli va Majnun ramzlariga murojaat qilingan holda sevgi, fojiali taqdir ifodalangan:

Men Layliga teng kelmasdim,
Majnunlarga yetmas edim.
Qoshingga bir kelmas edim,
Seni sevib qoldim netay.

Yuqoridagi misralarni aytgan kishi albatta, muhabbat deb atalmish sirli va gashtli olam go‘shasida sayr qilgan. Muhabbat qo‘shiqlari odatda bir shaxs tomonidan kuy jo‘rligida ijro etiladi. Ammo mashhur qo‘shiqlar gap-gashtaklarda, turli munosabat bilan kichik doirada o‘tkaziladigan yig‘inlarda jamoa bo‘lib ijro etilishi ham mumkin.

Ushbu qo‘shiq ayollar ovozlari uchun mo‘ljallangan.

Qo‘shiq ijrosida yuqoridan pastga qarab kuylashda ovozni zo‘riqtirmaslik kerak. Buning uchun to‘g‘ri nafas olish, undan to‘g‘ri foydalanish, so‘zlarni aniq talaffuz etish, jarangdor va chiroyli ovoz hosil qilish talab qilinadi.

## Azim daryo

Qo‘shiqda inson ichki kechinmalari, turmush tashvishlari, hayot tajribasidan olgan taassurotlari, saboqlari orqali bayon qilinadi. Inson hamma narsani – yoshlikning ham, go‘zallikni ham qadriga yeta bilmog‘i lozim. Aks holda inson bu holga o‘z hayoti bilan javob beradi.

Qo‘shiqda manmanlik, mag‘rurlik inson uchun zararli odatlar ekanligi haqida so‘z boradi. Kamtarin inson har doim unib, o‘sib, muvafaqqiyatlarga erishishi mumkinligi kuylanadi.

Ushbu qo‘shiq professional qo‘shiqchilar va xonandalar tomonidan kuylab kelinayotgan nodir asarlardan hisoblanadi. Kuyining soddaligi, yoqimliligi, ijro etishda diapazonini uncha katta bo‘lmaganligi,

kuylashda ham ortiqcha qiyinchiliklar tug‘dirmaydi. Aksincha, qo‘shiqni o‘zlashtirishni yengillashtiradi.

Qo‘shiqni salmoqlanib, shoshmasdan, so‘z talaffuziga niqoyatda ahamiyat bergan holda, “voy doday” va “alamo” so‘z takrorlarini mayin, chiroyli va ta'sirchan qilib kuylashga erishish kerak.

## Chaman – chaman

Aytganimizdek, o‘zbek xalq qo‘shiqlarida qizlar gulga, nozik niholga o‘xshatiladi. Mana shu noziklik, go‘zallik, latofat, iffatga yigitlar befarq emas. Shunday ekan, albatta, yigit qalbida qizga nisbatan iliqlik uyg‘onadi. Oshiq yigit vaqt topib sevgisini izhor etgisi va qizning qalbiga yo‘l topgisi keladi. Agar qiz yigitning sevgisini rad etsa, yigit holi ne kechishligini tushunsa bo‘ladi.

Matnda ham qiz yigit sevgisini rad etmoqda. Oshiq yigit maqsadiga erisholmay el-yurt oldida yuzi sariq bo‘lganligidan, “o‘z elimdan kechmayman, sen bevafo yor uchun” – deb, o‘zini ovutmoqda. Yana “Chaman-chaman, gul bo‘lsin, elimda to‘ylar bo‘lsin” – deb elu-yurtga yaxshi niyatlarini izhor etmoqda. Albatta el-yurt tinch bo‘lsa, shu yurtga to‘ylar yarashadi, o‘yin-kulgi yarashadi.

Qo‘shiq tez tempda ijro etiladi. Shunga ko‘ra, tez va to‘liq nafasdan foydalanib kuylash talab etiladi.

Qo‘shiq so‘zlarini tez va burro-burro aytish, jumlalarni bir-biridan ajratmaslik, ovoz jarangdorligini yo‘qotmaslik, yopiq ovoz bilan va tantanavor kuylash xonandani professional san’atkor bo‘lishiga yordam beradi.

## Oy chiqsa

Qo‘shiq lirik qahramoni kunduz kuni ko‘kda oftob charaqlab tursa, osmondagi yulduzlar ko‘rinmaydi. Oftob nurlariga mahliyo bo‘lib, bizdek yulduzni unutib qo‘ydingizmi, nega tez-tez kelib hol-ahvol so‘ramaysiz? – deya kuylayapti. Naqarotda kecha-kunduz yorini oydek jamolini o‘ylab, uning xayoli bilan yashash istagi bildirilgan. “Suv to‘lqini, uning yiroqdan ko‘rinishi”-sevgi tushunchasi bilan bog‘liq. Oshiq dil o‘z sevgan yorini tongga qadar o‘ylab, yo‘llarini poylab chiqishi aniq. “Daryo”, “suv” obrazlari sevgiga timsol bo‘lib kelmoqda. Shunday bo‘lsada, oshiq ma'shuqasi diydorini ko‘rish dardida, ayriliq iztirobini tortayotganligini ifodalab kelgan.

Hamza Hakimzoda Niyoziy qalamiga mansub ushbu asar xalq qo‘shiqlari yo‘lida kuylangan. Yigitlar ovoziga moslab yaratilgan ushbu qo‘shiq ovoz diapazonini kengaytirish, to‘g‘ri nafas olish yo‘llaridan foydalanish, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etish, mayin va jarangdor ovoz hosil qilish, yuqori registrlarda kuylashda to‘g‘ri va toza tovush hosil qilish uchun yordam beradi.

Qo‘shiq band va naqarotdan iborat bo‘lib, asosiy tonallikka nisbatan baland tovushdan boshlanishi xonandadan katta ijro mahoratini talab etadi. Uchinchi bandni yuqori tovushlarda kuylaganda to‘g‘ri nafasdan foydalanish kerak. Shunda to‘g‘ri tovush hosil qilishga erishiladi.

## Ikkala marjoningdan

Aka bozor borsangiz (a),
Menga marjon keltiring,
Ayamga bildirmay o‘zimga bering.

Ha! O‘zbek qizlarining andishaligi, odobi, or-nomusi shunchalik kuchliki, hattoki sevgisini ham yashiradi. Ma’shuq bozordan keltiradigan marjonni ham, do‘ppini ham ma’shuqa onasiga bildirmasdan berishligini, agar bilib qolguday bo‘lsa, har ikkisiga ham og‘ir bo‘lishidan ogohlantirib, yalinib so‘raydi. Yigit esa o‘zi bozordan olib kelgan marjonini qizga qanchalar yarashganligidan quvonadi.

Uncha katta bo‘lmagan xalq qo‘shig‘i ayollar va yigitlar uchun yozilgandir. Asosiy bandlarni ayollar ijro etsa, naqarot qismini yigitlar ijro etadi.

Qo‘shiq sodda va yengil yozilgan bo‘lsa ham, ikki sevishganlarning dil ishorlaridir. Kuylash jarayonida sevishganlarni ichki tuyg‘ularini his etish kerak. Shu bilan birga jozibali, tantanavor, yengil , ravon va erkin kuylamoq lozim.

## Sizni ayvon

Ushbu qo‘shiqning ijrosidagi sokinlikdan bilinib turibdiki, yorning kelishi, lekin ma’shuqaga hech qanday so‘z demay yana ketib qolishi bir so‘z aytishini intizorlik bilan kutib turgan qizning yuragiga armon bo‘lgan. Lekin qizning sabr toqati tog‘da, suv yo‘q yerda ham uzoq umr ko‘radigan archaga o‘xshatilgan. Uning sevgan yoridek yor hech

qayerda yo‘qligi, hattoki birgina jonini ham qurbon qilishligi qizlarning o‘z sevgisiga bo‘lgan ishonchli sadoqatini ko‘rsatadi.

Qo‘shiq shoshilmay, yoqimli, nozik va osoyishta kuylanadi. Kuylash jarayonida ovozni bir tekis chiqishiga, so‘zlarning ravonligiga, to‘g‘ri talaffuziga ahamiyat berish kerak.

Qo‘shiqning yuqori tovushlarda kuylaganda ovozni zo‘riqtirmasdan, yopiqroq, yumaloq tarzda aytib, to‘g‘ri nafasdan foydalanish darkor.

## Yorning guli galdi

Qadim zamonlardan ma'lumki, bir-birini sevgan oshiq-ma'shuqlar hamisha ham turmush qurish baxtiga muyassar bo‘lavermaydilar. Shuning uchun lirik qo‘shiqlarda dard, hasrat, alam motivlari ham o‘rin olgan.

Qiz qalbidagi dard-alamlarini o‘z yaqinlaridan biri - opasiga oshkor qiladi.

Ushbu qo‘shiq “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonidan olingan bo‘lib, Shohsanam tomonidan ijro etilgan. Shohsanam o‘z yorini sog‘ingani, shum raqiblarning unga o‘tkazgan tazyiqlari kuylangan. G‘aribning kelishiga kimdir to‘sqinlik qildimi yoki boshqa sabablar bormi? Aniq holatni bilolmay hijron azobida qiynalayotgan Shohsanamning ichki kechinmalari qo‘shiqda o‘ta ta’sirchan tasvirlangan.

Har bir xonanda kuylaganda, albatta, Shohsanamning ichki tuyg‘ularini his qilgan holda, nozik, chiroyli, mayin tovush bilan kuylash kerakki, eshituvchiga lirik qahramon holati yetib borsin.

## Charxim

“Charxim” qo‘shig‘i qadimda mehnat jarayonida aytilgan. Hozirda bu qo‘shiq to‘y-bazmlarda ham kuylanib kelinmoqda.

Qo‘shiqda o‘zbek qizlarining yuzlari olma va anor kabi shirin mevalarga o‘xshatiladi. Qizlar bergan bir kosa suv yigitlarga sharbatdek shirin tuyulishiga ishora qilinadi.

Odamzotning tabiati turlicha. Shunday kishilar borki, yigit va qiz orasiga sovuqchilik soladi. Qo‘shiqda ham shunday kishilar haqida armon bilan kuylanayapti.

Ushbu qo‘shiq yigitlar va ayollar ovozlari uchun yozilgan. Birinchi bandni sekin tepmda ayollar ijro etadi. Qolgan bandlar esa tez tempda kuylanib, bandlarni yigitlar, naqarotni esa ayollar tomonidan aytishadi.

Kuylash jarayonida tempning o‘zgarishi, yigitlar va ayollar ovozlarining bir-biriga mos kelishi, so‘z talaffuzi, chiroyli tovush hosil qilish xonandalarning ijro mahoratini o‘sishiga yordam beradi.

## Jirov aytishuv

Bu qo‘shiq Jizzax viloyati Zomin tumanida aytilgan. Qo‘shiq ikki qismdan iborat. Yigit va qizning aytishuvidan iborat bo‘lgan birinchi qismida yigit yuragiga o‘t solib, do‘mbirasini sayratgan go‘zal va zukko qizlarni ta'riflab, maqtab, Zominga o‘lan aytgani kelganligini bildiradi. Qizlar yigitga qarata o‘z ko‘ngil dardingni kuyga solib kuylayapsan, qadrimizga yetadigan yigit bu elda ham bor ekan, lekin bizga teng kelishga qurbing yetarmikan deya kuylashadi. Yigit qizlarning bulbuldek ovozini, totli, yoqimli so‘zlarini maqtab, haddim siqsa belingdan quchoqlasam, buni otang bilsa uyingdan quvsa kerak deya tegajoqlik qilib kuylaydi. Qizlar yigitga qarata bilib-bilmay og‘zingga kelganini so‘zlayvermaslikni, bu elatning qizlari to‘ydan oldin bunday bejo ishlarni qilmaydi deya javob berishadi. Yigit ham shu elning bolasiman, qizlar tog‘ning gul lolasiman desa, birgalikda elning kattalari, ota-bobolar kengashib, duo bersa, to‘yni to‘yga ulaylik deb kuylaydi.

Qo‘shiqning ikkinchi qismi esa mazmunan o‘zgacharoq. Charx yirib qo‘shiq aytayotgan qizlar o‘z sog‘inchlarini kuylaydi. Charxni g‘um-g‘um etishi, ovozining Jizzaxga yetishi, Jizzax qizlari “tolli olma” ekishi, olmalar pishib tor ko‘chaga tushishi tasvirlanadi. Bu yerda “tolli olma”-baland bo‘yli, olmaning pishishi – qizlarning bo‘yiga yetganligi, “tor ko‘chaga” tushishi – hali hech kimga ko‘ngil qo‘ymaganligi, “bulbul zor”ligini go‘zal obrazlarda ifodalagan. “Do‘ppi” – oila qurish, turmushga chiqish istagi borligini bildiradi. Do‘ppining tokchada yoki bo‘qchada turishi qiz oila qurishga tayyor ekanligini anglatadi.

Jizzax viloyati hududlarida ijro etiluvchi bu qo‘shiqning birinchi qismini sekin tepmda yakkaxonlar bilan jamoa birligida ijro etiladi. Yakkaxonlar ijro etayotgan vaqtda jamoa past tovushda to birinchi hism tugagunga qadar birinchi to‘rtlikni kuylaydi. Yakkaxonlar qo‘shiq ijrosida to‘g‘ri nafasdan foydalanishlari kerak. Chunki qator so‘zlarining

uzunligi uzoq ushlab turiladigan nafas talab etadi. Yakkaxonlar so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga, so‘zning oxiriga qadar nafasni yetkaza olishga, yoqimli va mayin tovush hosil qilishga erishishlari lozim. Chunki, matnda Jizzax viloyatiga xos shevaga oid so‘zlardan foydalanilgan.

Ikkinchi qismi esa tez tempda boshlanib, ayollar tepm bilan so‘z ohangida ijro etadilar, Yigitlar esa musiqa bilan bir ohangda kuylaydilar. Bularning hammasi xonandalarni ovozlarining bir xilligiga, tovushlarni bir xilda hosil bo‘lishligiga, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuziga, to‘g‘ri nafas olib, undan foydalanishga erishishiga olib keladi.

## Rallojon

Bu qo‘shiqda go‘zal yorning ishqida, uni ko‘rish ishtiyoqida yonayotgan oshiq yigitning dil izhorlari tarannum etiladi. Musaffo osmonda uchayotgan “qush” yoki “qarg‘a” uzoqdagi yor–go‘zal qiz xabarining timsoli sifatida ifodalangan. Yana “ochilgan qizil gul” bo‘yi yetgan 18 yoshli qiz sifatida ta'riflanmoqda. Osmondagi “uch o‘rdak” sog‘ingan dillarni yetishtiruvchi bir ilinj ramzidir. “O‘rdak” ramzi xalq og‘zaki qo‘shiqlarida xabarchi sifatida talqin etiladi.

Xalq yo‘lida yozilgan qo‘shiq yigitlar ovozlari uchun mo‘ljallangan. Qo‘shiq juda sodda va yengil yozilgan. Lekin ijro vaqtida o‘zbek qo‘shiqchiligiga xos melizmlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu qo‘shiqni yanada jozibali, chiroyli, yoqimli va ta'sirchanligini oshiradi.

## Lalaychi

Ushbu qo‘shiq yosh qizchaning bo‘yi yetib qolganda atrofidagilar - mahalla kuyidagilar unga befarq qaramasligini, uning har bir harakati boshqalarning e'tiborida bo‘lishi haqidadir. Sovchilar haqida fikr yuritilsada, lekin yigit qalbini o‘rtayotgan alam aks etgan. Sanam – yosh qiz, u kimningdir qalbini egallagan. “Oq qush” ruh ma'nosida qo‘llaniladi. Bu qo‘shiqda “oq qush” – yigit qalbiga tushgan iloqiy ruh – ishq-muhabbat timsolidir. Ovchi o‘sha oq qushga tuzoq qo‘ymoqchi bo‘lgan kimsalar “sovchilar” sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xalqimizda sovchilarning qiz tomon roziligini olish uchun to‘qqiz dasturxonda noz-ne'matlar, shirinliklar yuborish odati mavjud. Shu “to‘qqiz tovoq” qiz tomonning sovchilarga munosabatini bildiruvchi vosita rolini o‘ynagan. “To‘qqiz” raqami abadiylik, boqiylik ramzi,

bilim, aql va taqdir belgisi deb hisoblangan. Qo‘shiqda shu ramziylik o‘z ifodasini topgan.

Bu qo‘shiq ham yigitlar ovozlari uchun yozilgan bo‘lib, naqarot qismi ansambl bo‘lib kuylanadi. Bandlar esa yakkaxon tomonidan kuylanadi.

Qo‘shiqning boshlanishidagi ansambl ijro etadigan “hey” ohangi judayam yengil va past tovushdan boshlab kuylanadi. Qavs ichiga olingan matn ikkinchi marta ijro etilganda kuylanadi.

Aytganimizdek bandlarni yakkaxon ijro etar ekan, so‘z ma'nolariga e'tibor bergan holda, to‘g‘ri nafas bilan, so‘zlarni burro-burro qilib, oshiqmasdan ijro etishi kerak. Undov takrorlarini kuylagan vaqtda mayin va chiroyli tovushlar bilan kuylash maqsadga muvofiq.

## Aytishuv

(yanga va qayinsingil)

Qadimdan ma'lumki, qiz bola yangasini yaqin olib sirdosh sifatida barcha sirlarini ayta olgan va undan keraklicha maslahat so‘ragan. Yanga ham qayinsingilga mehribon bo‘lgan.

Bu qo‘shiqda turmushga uzatilgan qayinsingil yangasiga ko‘nglidagi dardini, ya'ni o‘zi istagan, orzu qilganidek yigitga tegmaganini aytmoqda. Kuyovi puchuqligi, bexosdan oldidan kuchuk chiqib undan qo‘rqib ketganidek, qo‘rqib labiga uchuq toshganligi–o‘ylamagan ish bo‘lganini ifodalasa, yanga qayinsinglisini ovutib kuyovning ko‘rinishiga qarab baho bermaslik, cho‘tir bo‘lsa ham, qora bo‘lsa ham, ko‘r bo‘lsa ham yaxshi fazilatli, mehribon bo‘lsin, - deya nasihat qilmoqda. “O‘tiribdi deganda, puchuq bo‘lsin, er bo‘lsin”-deb qayinsingilni yupatmoqda.

Yanga va qayinsingil aytishuvi, ko‘rinib turibdiki ayollar ovozlari uchun yozilgan. Yangasiga o‘z dardini aytayotgan qayinsingilning ichki tuyg‘ulari, uni jon dili bilan eshitayotgan yanganing mehribonchiligini his qilgan holda kuylashlik, qo‘shiqning yanada jozibador, chiroyli va ta'sirchan bo‘lishligiga olib keladi.

Har ikki xonandadan ham to‘g‘ri nafas olib, undan foydalanish, so‘zlarni talaffuzi, mayinligi, to‘g‘ri tovush hosil qilish kabilar qo‘shiq ijrosida talab qilinadi va bunga erishish lozim.

# AMALIY MASHG‘ULOT

## Poezd kelodi shoshib



## Poyezd kelodi shoshib

Poyezd kelodi shoshib, oh  oh,
Tog‘u toshlardan oshib.
Namanganning qizlari (ey)
Zamonaga munosib.

Naqarot:

Gulshan gullar guliman, oh  oh,
Elni jonu diliman, oh  oh,
Chakkangdagi gulingman.

Qizil gul bo‘ldim so‘ldim, oh  oh,
Yor hasratingda o‘ldim.
Yor bo‘lsang bo‘loring ayt,
Bevafo yordin o‘ldim.

Naqarot:

Gulshan gullar guliman, oh  oh,
Elni jonu diliman, oh  oh,
Chakkangdagi gulingman.

Olma oqib kelodi, oh  oh,
Behi qalqib kelodi.
Yurakdan sevgan yorim,
Qoshin qoqib kelodi.

Naqarot:

Gulshan gullar guliman, oh  oh,
Elni jonu diliman, oh  oh,
Chakkangdagi gulingman.

# Omon yor




## Omon yor

Naqarot:
Jon ukam, Andijonlik ukam (ey), omon yor,
Saning shirin so‘zingdan (ey), omon yor.

Osmondagi uch o‘rdak (ey), omon yor,
Uchalasi ham birdak (ey), omon yor.
Qishlog‘imiz qizlari (ey), omon yor.
Ochilgan qizil guldek (ey), omon yor.

Naqarot:
Jon ukam, Andijonlik ukam (ey), omon yor,
Saning shirin so‘zingdan (ey), omon yor.

Ariq bo‘yi gul hovuz (ey), omon yor,
Gul tergani kelganmiz (ey), omon yor.
Gulni bahona qilib (ey), omon yor,
Yor ko‘rgani kelganmiz (ey), omon yor.

Naqarot:
Jon ukam, Andijonlik ukam (ey), omon yor,
Saning shirin so‘zingdan (ey), omon yor.

# Doirani chaling



## Doirani chaling

Naqarot:

Doirani chaling jon momo,
O‘yinga tushsin qiz bola.
Qiz bolaning sochiga, jon joney,
Yarashibdi chuchmomo.

Navro‘z kuni qizlarjon (ey),
O‘sma bargin teraylik (ey).
Sochga taqib gul marjon (a), jon joney,
Qoshga o‘sma qo‘yaylik (ey).

Naqarot:

Doirani chaling jon momo,
O‘yinga tushsin qiz bola.
Qiz bolaning sochiga, jon joney,
Yarashibdi chuchmomo.

Somsa yopib yalpizdan (a),
Omonliga somonlik (a).
Yuz Navro‘zni o‘tkazgan (a), jon joney,
Momolarga beralik (a).

Naqarot:

Doirani chaling jon momo,
O‘yinga tushsin qiz bola.
Qiz bolaning sochiga, jon joney,
Yarashibdi chuchmomo.

# Chechalar


Vivo
Hamma
Os mon da oy lar o'y na sin, cho' ri che cha lar qay na sin. Dav ra to' ri- da jo' ra - la ro
Be li- ni mah kam bog' la- sin.
Yigitlar:
Tog' dan ke la miz qa ra- lab, Sur-ma te ra miz sa ra lab.
Qosh la ri qa ro su-luv- qi zo de-vor-dan qa rar mo' ra- lab.
Hamma
Os mon da oy lar o'y na sin,
cho' ri che cha lar qay na sin. Dav ra to' ri- da jo' ra - la ro be li- ni mah kam bog' la- sin.
Yigitlar:
Ni ma de san giz shu er ga miz, So'-rov ga ja vob ay ta miz. Ga pi miz siz ga yoq -ma- sa yo
sur-ma-ber san giz qay ta- miz.
Hamma
Os mon da oy lar o'y na sin, cho' ri che cha lar qay na sin.
Dav ra to' ri- da jo' ra- la ro be li ni mah kam bog' la sin.
Coda
Hey...

## Chechalar

Naqarot:

Osmonda oylar o‘ynasin,
Cho‘ri chechalar qaynasin.
Davra to‘rida jo‘ralar (o),
Belini mahkam bog‘lasin.

Tog‘dan kelamiz qaralab,
Surma teramiz saralab.
Qoshlari qaro suluv qiz (o),
Devordan qarar mo‘ralab.

Naqarot:
Osmonda oylar o‘ynasin,
Cho‘ri chechalar qaynasin.
Davra to‘rida jo‘ralar (o),
Belini mahkam bog‘lasin.

Nima desangiz shu yergamiz,
Savolga javob aytamiz.
Gapimiz sizga yoqmasa (yo),
Surma bersangiz qaytamiz.

Naqarot:
Osmonda oylar o‘ynasin,
Cho‘ri chechalar qaynasin.
Davra to‘rida jo‘ralar (o),
Belini mahkam bog‘lasin.

## Yor-yor 1




## Yor – yor

Hay-hay o‘lan (o), jon o‘lan,
Qizlar kelar yor (a), qizlar kelar (o) yor-yor.
Kelinchakning (o) ko‘zlari,
Yoshga to‘lar yor (a), yoshga to‘lar (o) yor-yor.

Hay-hay o‘lan (o), jon o‘lan,
Muz panjara (ya) yor-yor.
Har jafoga ko‘nadi (yo),
Qiz bechora (ya) yor-yor.

# Yor-yor II


Hayhay o' lan, jon o' - la no, ke lin kel di,
yor - yo ra ke lin kel di. Qo' shiq bi lan to'y bi - la no (ha)
ke lin kel di, yor - yo - ra ke lin kel di.
Hay-hay o' lan jon o'- la no jo- no na dur, yor - yo- ra jo- no -
ha dur. O'z teng - la ri i- chi - da- yo ya go - na dur, yor -
yo- ra ya go na - dur. Hay- hay o' lan
jon o'- la no gul qay da bor, yor - yo- ra gul qay - da bor. Bir yax -
shi ga bir yo - mo- na Har joy - da bor, yor - yo- ra har joy
da - bor. yor - yo- ra har joy da - bor.

# Yor – yor

Hay-hay o‘lan, jon o‘lan (o), kelin keldi,
Yor-yora, kelin keldi.
Qo‘shiq bilan to‘y bilan (o), ha, kelin keldi,
Yor-yora, kelin keldi.

Hay-hay o‘lan, jon o‘lan (o), janonadur,
Yor-yora, janonadur.
O‘z tenglari ichida (yo), ha, yagonadur,
Yor-yora, yagonadur.

Hay-hay o‘lan, jon o‘lan (o), gul qayda bor,
Yor-yora, gul qayda bor.
Bir yaxshiga bir yomon (a), har joyda bor,
Yor-yora, har joyda bor.

## Yor-yor III



## Yor – yor

Hay-hay o‘lan, jon o‘lan, kelin keldi, yor-yor,
Yor-yora, kelin keldi, yor-yor.
Qo‘shiq bilan to‘y bilan, sepi keldi, yor-yor,
Yor-yora, sepi keldi, yor-yor.

> Hay-hay o‘lan, jon o‘lan, janonadur, yor-yor,
> Yor-yora, janonadur, yor-yor.
> O‘z tenglari ichida, yagonadur, yor-yor,
> Yor-yora, yagonadur, yor-yor.

Hay-hay o‘lan, jon o‘lan, to‘yga yetkaz, yor-yor,
Yor-yora, to‘yga yetkaz, yor-yor.
Yurakdagi g‘uborimni, o‘zing ketkaz, yor-yor,
Yor-yora, o‘zing ketkaz, yor-yor.

### Vohey bola



## **Vohey bola**

Jiydani shoxi larzon, vohey bola yorey,
Osti to‘la xas-xazon, vohey bola yor-yora.
Kelin kuyov to‘yida, vohey bola yorey,
O‘ynab kulaylik shodon, vohey bola yor-yora.

Naqarot:

Vohey bola jon bola, to‘ylar bo‘lsin, yor-yor,
Shunday baxtli zamonda o‘ynab kulsin, yor-yor.

Dehqonobod bog‘ida, vohey bola yorey,
To‘y tomosha ko‘p bo‘lsin, vohey bola yor-yora.
“Sayhun” yigit qizlari, vohey bola yorey,
Davrada xizmat qilsin, vohey bola yor-yora.

Naqarot:

Vohey bola jon bola, to‘ylar bo‘lsin, yor-yor,
Shunday baxtli zamonda o‘ynab kulsin, yor-yor.

Navro‘z ayyom kunlari to‘ylar bo‘lsin yor-yor,
Shunday baxtli zamonda o‘ynab kulsin yor-yor.

# Yallajonim yalla



## Yallijonim yalla

Boqqa kirgim kelodi, yallijonim yalla,
Gullar tergim kelodi, oromijonim yalla.
O‘sha sevgan yorimni, yallijonim yalla,
Kunda ko‘rgim kelodi, oromijonim yalla.

Gul hovuzning bo‘yida (ya), yallijonim yalla,
Qizil gullar o‘sibdi (ey), oromijonim yalla.
Qizil gullar o‘sganda, yallijonim yalla (ey),
Yorga ko‘ngil tushibdi (ey), oromijonim yalla.

Boqqa kirgan ham o‘zim (a), yallijonim yalla,
Gullar tergan ham o‘zim (a), oromijonim yalla.
Shunisiga hayronman, yallijonim yalla (ey),
Yorga o‘tmaydi so‘zim (a), oromijonim yalla.

O‘sha sevgan yorimni, yallijonim yalla (ey),
Kunda ko‘rgim kelodi, oromijonim yalla.

### Usta Rashid temirchi



## Usta temirchi

Usta Rashid temirchi,
O‘tga temir tashlachi.
Qish o‘tib bahor keldi,
Zo‘r asboblar yasachi.

Quloq sol, ey, temirchi,
Menga kerak tok qaychi.
Ham bog‘da ishlash uchun,
Ketmon, o‘roq yasachi.

Temirchi, ho, temirchi,
Navbatda men birinchi.
Mening aytganlarimni,
Undan oldin yasachi.

Usta Rashid temirchi,
O‘tga temir tashlachi.
Qish o‘tib bahor keldi,
Zo‘r asboblar yasachi.

Usta ishingga rahmat,
Mehnatingdan top rohat.
Endi bizdan harakat,
Olloh bersin barakat.




## Soch popuk

Soch popugim uchida (yo), ko‘zmunchog‘im bir shoda,
Yig‘lamagan qiz bormu (yo), bu bevafo dunyoda.

Naqarot:
Inja biyo, inja biyo, jonam bazane.

O‘choq boshida qumg‘on (ey), atrofi baland qo‘rg‘on,
Sevganimga yetolmay (ey), yurak bag‘rim bo‘ldi qon.

Naqarot:
Inja biyo, inja biyo, jonam bazane.

Tor hovlida katta tol, soya beraman deydi,
Otam tengi keksa chol meni olaman deydi.
Tor hovlida katta tol, soya beraman deydi,
Otang tengi keksa chol seni olaman deydi.

Naqarot:
Inja biyo, inja biyo, jonam bazane.

**Yallo samandaro**




## Yallo samandaro

Naqarot:
Yallo, yallo, yallo, yallo samandaro,
Ukajon seni yo‘lingga bo‘ldim qalandaro.
Qoshginangni qarosi yuvsa ketarmu (yo),
Seningdek toza gul bog‘da bitarmu (yo).
Seningdek (ey) toza gul bog‘da bitganda (yo),
So‘rab borsam bog‘bondan menga sotarmu (yo).
Naqarot:
Yallo, yallo, yallo, yallo samandaro,
Ukajon seni yo‘lingga bo‘ldim qalandaro.
Qoshginangni qarosi, boshginamni balosi,
Lola kabi kuydirdi (ey), nadur uning davosi.
Naqarot:
Yallo, yallo, yallo, yallo samandaro,
Ukajon seni yo‘lingga bo‘ldim qalandaro.

## Dutor chalib




## Dutor chalib

Dutor chalib o‘tirsam (o),
Yorim keldi yonimga.
Shirin so‘zini qilib (o),
O‘tni soldi jonimga.
Yor-yoraxon, o‘tni soldi jonimga.

Dutor chalib o‘tirsam (o),
Ipi uzilib ketdi.
O‘zga yoring bor ekan (o),
Ko‘nglim buzilib ketdi.
Yor-yoraxon, ko‘nglim buzilib ketdi.

Fabrikaning yo‘lidan (o),
Ro‘molcha topib oldim.
Topib oldi demanglar,
Mehnatga sotib oldim (o),
Gulyoraxon bo‘ylaringdan, gulyor.

Fabrikaning eshigi (yo),
Ochilsa yopilmaydi.
Fabrikaning qizlari
Chirmonga sotilmaydi (yo),
Gulyoraxon bo‘ylaringdan, gulyor.

Dutor chalib o‘tirsam (o),
Yorim keldi yonimga.

# Seni sevib qoldim



## Seni sevib qoldim

O‘zing qaro qoshginasan,
Yurak bag‘ri toshginasan.
Hijroningda qonlar yutib (o),
Seni sevib (o) qoldim netay.

Yoding bilan o‘ngu-tushim,
Kelar mening tengu-to‘shim.
Hech bo‘lmasa o‘zing tushin (o),
Seni sevib (o) qoldim netay.

Men Layliga teng kelmasdim,
Majnunlarga yetmas edim.
Qoshingga bir kelmas edim (o),
Seni sevib (o) qoldim netay.

O‘zing qaro qoshginasan,
Yurak bag‘ri toshginasan.
Hijroningda qonlar yutib (o),
Seni sevib (o) qoldim netay.

# Azim daryo


A zim dar - yo man de bo - na Hay ba ting ga i shon ma- ya voy do - day,
Bir kun su ving qu ri- bon oq mas dar -yo bo' lur -san - ey a- la - mo.
Yosh lik da mag'- rur - la nib chi ro yin ga i -shon ma Bir kun chi roy
ke ti - bon qu ruq sav-do bo' lur - sa - no a - la - mo
Qo shing qa ro
bo'l gun -cha, ko' - zing qa ro bo'l - sa chi Men ga yol - g'on ayt gun - cha - ya,
Coda
Yu zing qa ro bo'l sa - chi - yo, a - la- mo, a- la- mo, a- la- mo.

## Azim daryo

Azim daryoman debon,
Haybatingga ishonma (ya), voy doday,
Bir kun suving quribon,
Oqmas daryo bo‘lursan (o), alamo.

Yoshlikda mag‘rurlanib,
Chiroyingga ishonma,
Bir kun chiroy ketibon,
Quruq savdo bo‘lursan (o), alamo.

Qoshing qaro bo‘lguncha,
Ko‘zing qaro bo‘lsachi.
Menga yolg‘on aytguncha (ya),
Yuzing qaro bo‘lsa-chi (yo), alamo.

Azim daryoman debon,
Haybatingga ishonma (ya), voy doday,
Bir kun suving quribon,
Oqmas daryo bo‘lursan (o), alamo.




## Chaman – chaman

Oshiq bo‘ldim jamolingga,
Ajab qaddu niholingga.
Qizil yuzim sariq bo‘ldi,
To‘yolmadim visolingga.

Naqarot:
Chaman-chaman, gul bo‘lsin (o),
Elimda to‘ylar bo‘lsin.

Toqqa chiqdim tol uchun,
Bulbuli yomon uchun.
O‘z elimdan kechmayman (o),
Sen bevafo yor uchun.

Naqarot:

Chaman-chaman, gul bo‘lsin (o),
Elimda to‘ylar bo‘lsin.

Silkinadi majnuntol,
Sochlaringni yig‘ib ol.
Shunday baxtli zamonda (ey),
Sen ham o‘ynab kulib qol.

Naqarot:
Chaman-chaman, gul bo‘lsin (o),
Elimda to‘ylar bo‘lsin.

# Oy chiqsa


Ko'k-da yul duz ko' rin may di, Qu -yosh bo rib bot gun-cha. Tez tez ke lib hol so'r sang-chi,
Uy da yol g'iz yot gun-cha. Oy chiq sa oy - din bo' lur, Kun chiq sa kun duz bo' lur. Shu yo rim ning
qosh la ri - yo, Tel pak ka qun- duz bo' lur. Yi roq-da gi suv to'l qi ni Ko' ri na - di yal ti rab,
2.
Ko' ri na- di yal ti rab. Ke lar yo' ling poy lab chiq-sam, Tong ot gun-cha, qal ti rab. Oy chiq sa oy-
din bo' lur, Kun cniq sa kun- duz bo' lur. Shu yo rim-ning qosh la ri - yo, Tel pak ka qun -
duz bo' lur. Bor dim dar -yo kech ga li - ya,
O' tir- dim suv ich-ga li. Yo rim dan kel - sa xa ba - ro, Qa no tim yo'q uch ga- li.
Oy chiq - sa oy - din bo' lur, Kun chiq - sa kun - duz bo' lur.
Shu yo - rim - ning qosh - la - ri - yo, Tel - pak - ka qun - duz bo' lur.

## Oy chiqsa

Ko‘kda yulduz ko‘rinmaydi,
Quyosh borib botguncha.
Tez-tez kelib hol so‘rsangchi,
Uyda yolg‘iz yotguncha.

Naqarot:

Oy chiqsa oydin bo‘lur,
Kun chiqsa kunduz bo‘lur,
Shu yorimning qoshlari (yo),
Telpakka qunduz bo‘lur.

Yiroqdagi suv to‘lqini
Ko‘rinadi yaltirab,
Kelar yo‘ling poylab chiqsam,
Tong otguncha qaltirab.

Naqarot:

Oy chiqsa oydin bo‘lur,
Kun chiqsa kunduz bo‘lur,
Shu yorimning qoshlari (yo),
Telpakka qunduz bo‘lur.

Bordim daryo kechgali (ya),
O‘tirdim suv ichgali.
Yorimdan kelsa xabar (o),
Qanotim yo‘q uchgali.

Naqarot:

Oy chiqsa oydin bo‘lur,
Kun chiqsa kunduz bo‘lur,
Shu yorimning qoshlari (yo),
Telpakka qunduz bo‘lur.




## Ikkala marjoningdan

Aka bozor borsangiz (a),
Menga marjon keltiring,
Ayamga bildirmay o‘zimga bering.

Ayam bilsa sizni aslo qo‘ymaydi,
Hech kimga bildirmay o‘zimga bering.

Naqarot:

Ikkala marjoningdan akang aylansin,
Qizlar bozoringdan akang aylansin.

Aka bozor borsangiz (a),
Menga do‘ppi keltiring,
Ayamga bildirmay o‘zimga bering.

Ayam bilsa sizni aslo qo‘ymaydi,
Hech kimga bildirmay o‘zimga bering.

Naqarot:

Ikkala marjoningdan akang aylansin,
Qizlar bozoringdan akang aylansin.

# Sizni ayvon


Moderato
Siz ni ay von biz ni o'r gi lay, ay von e mas - mu, O'r ta
si da chin - ni ay la- nay, ra von e mas - mu. Ke la - si zu
ke ta - siz, bir so'z de may - siz. Bu ham - ma si
yu rak - da o'r gi lay, ar mon e mas - mu. Tog' da ar-cha ming yil
ay la- nay, umr ko' rur - mu, Sho xi sin - sa zar gar o'r gi lay,
ku-mush qi lur - mu. Jon... Zar gar- ning bil - ga ni o'r gi lay,
ku - mush bo' lur - mu. Bi lib ber gan ko'n gil - lar o'r gi lay,
ju-do bo' lur - mu.
Siz ni ay von
biz ni o'r- gi lay, ay von e mas- mu
1.
2.

## Sizni ayvon

Sizni ayvon bizni, o‘rgilay, ayvon emasmu?
O‘rtasida chinni, aylanay, ravon emasmu?
Kelasizu ketasiz bir so‘z demaysiz,
Bu hammasi yurakda, o‘rgilay, armon emasmu?

Tog‘da archa ming yil, aylanay, umr ko‘rurmu?
Shoxi sinsa zargar, o‘rgilay, kumush qilurmu?
Jon!
Zargarning bilgani, o‘rgilay, kumush bo‘lurmu?
Bilib bergan ko‘ngillar, o‘rgilay, judo bo‘lurmu?

Sen go‘zalni izlab, o‘rgilay, cho‘llarni kezdim,
O‘shal kezgan cho‘llar, o‘rgilay, bo‘ston emasmu?
Jon!
Sening joning mening, o‘rgilay, jonim emasmu?
Mening jonim sizga, o‘rgilay, qurbon emasmu?

Sizni ayvon bizni, o‘rgilay, ayvon emasmu?

# Yorning guli galdi



## Yorning guli galdi

Apcha senga sirim bayon aylayin, aylayin,
Yorning guli galdi o‘zi galmadi yorey, galmadi.
Boshimdan o‘tganin bayon aylayin, aylayin,
Yorning guli galdi o‘zi galmadi, yorey, galmadi.

G‘abro falak mani qildi begona, begona,
O‘zi galmiy guli galdi g‘aybona, g‘aybona.
Mening uchun yetim bo‘lib bog‘bona, bog‘bona,
Yorning guli galdi o‘zi galmadi, yorey, galmadi.

Shum raqiblar meni yordan ayirmish, ayirmish,
Falak mening niholimni qayirmish, qayirmish.
Yorim endi bilmam kimga buyurmish, buyurmish,
Yorning guli galdi o‘zi galmadi yorey, galmadi.

Shohsanam qiz derlar mani otima, otima,
Bir oh ursam olam yonar o‘tima, o‘tima.
Sandan boshqa kimlar yetar dodima, dodima,
Yorning guli galdi o‘zi galmadi yorey, galmadi.

# Charxim


Moderato
Qizlar
Char xim g'um g'um e ta di, gul boq qa - yo Do g'is ton - ga
e ta - di-uo gul boq - qa. Do g'is ton ning qiz la ri -yo, qiz la - ri-yo.
Ach-chiq ol - ma e ko - di -yo, gul boq - qa. Do g'is ton ning qiz la ri, qiz la - ri -yo,
Ach chiq ol - ma e ko - di -yo, gul boq - qa.
Vivo
Do gis ton ning qiz la - ri ol-ma, a nor yuz la - ri. Suv de sa shar -bat ber -gan,
Do g'is ton ning qiz la - ri. Jon o'r toq, jon o'r toq, At rof la ring - ga bir boq,
Yigitlar
Ko'p ko yi - ma, ko yi ma - ey, Jon o'r toq, jon o'r toq. Da la da gi g'o' za - ni,
qiz lar qil di ya ga - na. Uy da tur gan yo rim - ni, Dush man qil di be-go - na.
Qizlar
Jon o'r toq, jon o'r toq, At rof la ring - ga bir boq. Ko'p ko yi - ma, ko yi ma - ey,
Hamma
Jon o'r toq, jon o'r toq. Ko'p ko yi - ma, ko yi ma - ey, Jon o'r toq, jon o'r toq.

## Charxim

Charxim g‘um-g‘um etadi, gul boqqa (yo),
Dog‘istonga etadi (yo), gul boqqa.
Dog‘istonning qizlari, qizlari (yo),
Achchiq olma ekadi (yo), gul boqqa.

Dog‘istonning qizlari,
Olma, anor yuzlari,
Suv desa sharbat bergan,
Dog‘istonning qizlari.

Naqarot:

Jon o‘rtoq, jon o‘rtoq,
Atroflaringga bir boq,
Ko‘p koyima, koyima (ey),
Jon o‘rtoq, jon o‘rtoq.

Daladagi g‘o‘zani
Qizlar qildi yagana.
Uyda turgan yorimni
Dushman qildi begona.

Naqarot:

Jon o‘rtoq, jon o‘rtoq,
Atroflaringga bir boq,
Ko‘p koyima, koyima (ey),
Jon o‘rtoq, jon o‘rtoq.

# Jirov aytishuv






## Jirov aytishuv

Jaqida, xiqida, xashsha,
Jaqida, xiqida ummora.
Jaqida, xiqida ummora,
Baqida, xiqida xaqqa.

Yigit: Ey, jaqidani aytgan suluv oy qizlar,
Do‘mbiramga sayqal bergan boy qizlar.

Men Zomindan o‘lan aytg‘oni keldim,
Jaqidag‘a javob aytg‘oni keldim.

Qiz: Ey, bek bolasi do‘mbirangni dardi bor,
Jirovingni tushunganga qadri bor.
Jirov aytib manov elga kelibsan,
Bas kelishga bizga qanday holing bor.

Yigit: Ey, bulbul ham lol qoladi (ey) so‘zingdan,
Buncha tolli mani tuydim tilingdan.
Haddim tutib quchoqlasam belingdan,
Bilsa otang quvmasmikan uyingdan.

Qiz: Ey, hay o‘lanchi bilib bilmay so‘ylama,
Oshiq nodon aytchi sendek bo‘lama.
O‘zing bilgan shu elatning qizlari (ey),
To‘y bo‘lmayin bel quchtirib qo‘yama.

Yigit: Ey, men Zominni el so‘rag‘an bolasi,
Qiz: Tovlaringda ochilgan gul lolasi.
Ikkalasi: Kel kengashib to‘yni to‘yga ulaylik,
Duo qilsin elingni yurt og‘asi.

Charxim g‘um-g‘um etadi (ya), Jizzaximga jetadi,
Jizzaximni qizlari (yo), tolli olma ekadi.
Tolli olma pishibdi (yo), tor ko‘chaga tushibdi,
Tol ko‘chasi tor ekan (o), yo‘lda bulbul zor ekan.

Charxim g‘um-g‘um etadi (ya), Jizzaximga jetadi,
Jizzaximni qizlari (yo), tolli olma ekadi.
Shu Jizzaxning qizlari (yo), Chust do‘ppiga zor ekan
Chust do‘ppisi tokchada (yo), jaltiraydi bo‘g‘chada.

Charxim g‘um-g‘um etadi (ya), Jizzaximga jetadi,
Jizzaximni qizlari (yo), tolli olma ekadi.
Jaqida, xiqida, xashsha,
Jaqida, xiqida ummora.
Jaqida, xiqida ummora,
Baqida, xiqida xaqqa.

# Rallojon


Yakka (hamma)
U chib o' ta - di qar-g'a ey ral lo- jon, Qo' nib o' ta - di boq- qa ey ral lo- jon.
Biz ni sev gan go' zal yo rey ral lo jon, O chil gan qi zil gul - dek - ey ral lo jon.
Ral- lo,ral lo, ral lo - jo ney ral lo- jon, Biz ni sev gan gul yor -ga ey ral lo- jon.
Yakka (hamma)
Os-mon da gi uch o'r -dak ey ral lo- jon, U cha la si ham bir- dak ey ral lo- jon.
Bor -sahg lar sa lom deng la ro ral lo jon, Biz ni so' ra gan yor - ga - ey ral lo jon.
Ral- lo, ral- lo, ral- lo - jo ney ral- lo - jon, Biz ni sev gan gul yor - ga ey
ral- lo - jon.
Coda
Biz ni sev gan gul yor - ga- ey ral- lo - jon.

## Rallojon

Uchib o‘tadi qarg‘a (ey), rallojon,
Qo‘nib o‘tadi boqqa (ey), rallojon.
Bizni sevgan go‘zal yorey, rallojon,
Ochilgan qizil guldek (ey), rallojon.

Naqarot:

Rallo, rallo, rallojon (ey), rallojon,
Bizni sevgan gul yorga (ey), rallojon.

Osmondagi uch o‘rdak (ey), rallojon,
Uchalasi ham birdek (ey), rallojon.
Borsanglar salom denglar (o), rallojon,
Bizni sevgan ul yorga (ey), rallojon.

Naqarot:

Rallo, rallo, rallojon (ey), rallojon,
Bizni sevgan gul yorga (ey), rallojon.

# Lalaychi keldi



## Lalaychi

Naqarot:

Hey!  Hey!
Lalay, lalaychi, keldi,
(Lala lalaychi, keldi)
Ko‘chaga moychi keldi.
Ko‘chaga moyni tashlab,
Sanamga sovchi keldi.

Ukajonim rostdan sovchi keldimu,
Oq qushimga biror ovchi keldimu.
To‘qqiz tovoq, to‘qqiz tugun ko‘tarib,
Ko‘chamizga to‘y tilovchi keldimu.

Naqarot:

Lalay, lalaychi, keldi,
(Lala lalaychi, keldi)
Ko‘chaga moychi keldi.
Ko‘chaga moyni tashlab,
Sanamga sovchi keldi.

Lalaychilar qovoq uyib ketsin (ey),
O‘z yog‘iga o‘zi kuyib ketsin (ey).
Shu sovchilar sanamjonga kelguncha,
Mening ikki ko‘zim o‘yib ketsin (ey).

Naqarot:

Lalay, lalaychi, keldi,
(Lala lalaychi, keldi)
Ko‘chaga moychi keldi.
Ko‘chaga moyni tashlab,
Sanamga sovchi keldi.

Hey!  Hey!

**Aytishuv**

(Yanga va qaynisingil)




# Aytishuv

(yanga va qayinsingil)

Yanga: Aylanoyin qiz jonim,
Dardi borday kelasiz.
Aytavering qiynalmay,
Yangangizman bilasiz.

Qayinsingil: Oldimdan kuchuk chiqdi,
Oldimdan uchib chiqdi.
Labimga uchuq chiqdi,
Kuyovim puchuq chiqdi.

Yanga: Gajir bo‘lsin, ko‘r bo‘lsin,
Qora bo‘lsin, el bo‘lsin.
O‘tiribdi deganda,
Puchuq bo‘lsin, er bo‘lsin.

## Test savollar

**1. “Jamoa ijrochiligi va uslubiyoti” fani qaysi mutaxassislik predmetlari bilan o‘zaro bog‘liq?**

a) xor sinfi, solfedjio, garmoniya
b) polifoniya musiqa nazariyasi, musiqa tarixi
s) vokal ansambli, xor sinfi, xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti
d) mutaxassislikka kirish, maqom asoslari

**2. “Jamoa ijrochiligi va uslubiyoti” fanining asosiy maqsadi nimadan iborat?**

a) vokal-xor jamoasiga bilimli, malakali rahbar tayyorlash
b) tarbiyachi-pedagog tayyorlash
s) yoshlarni qo‘shiq aytish, cholg‘u chalish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash
d) to‘g‘ri javob yo‘q

**3. 12 ta va undan ortiq kishidan tashkil topgan kuylovchi jamoa qanday ataladi?**

a) kvartet
b) ansambl
s) xor
d) kvintet

**4. Xormeyster – qaysi jamoa rahbari ?**

a) orkestr jamoasi
b) xor jamoasi
s) raqs jamoasi
d) xalq ashula va raqs ansambli

**5. Aralash xor qaysi ovozlardan tashkil topadi?**

a) alt, bas
b) tenor, soprano
s) soprano, bas
d) soprano, alt, tenor, bas

**6. 2, 3 va undan ortiq ovozli asar partiyalarini bir xil notalarda kuylanishi:**

a) unison deb ataladi

b) ko‘p ovozli deb ataladi
s) polifoniya deb ataladi
d) garmoniya deb ataladi

**7. Vokal-xor jamoasidagi ayollar ovozi nomlarini ko‘rsating?**
a) altino, tenor
b) soprano, alt
s) bariton, bas
d) kontralto

**8. Vokal-xor jamoasidagi erkaklar ovozi nomlarini ko‘rsating?**
a) soprano, alt
b) bas, bariton, tenor
s) alt, soprano
d) kontralto

**9. Rahbar vokal-xor jamoasiga repertuar tanlashda nimalarni nazarda tutmog‘i lozim?**
a) band va naqarotdan iborat ekanligini
b) qo‘shiqchilik an'analari, badiiy ijro yo‘llari vokal-xor jamoasiga mosligini
s) asarlarning mavzusini rang-barangligi, oddiydan murakkabga o‘tib borishligi, g‘oyaviy va badiiy yuksakligi va kontsertlarda ijro etilishini
d) b va s javoblar to‘g‘ri

**10. Qo‘shiq aytish xonandalardan nimalarni talab etadi?**
a) yaxshi talaffuz, to‘g‘ri nafas
b) ovozni zo‘riqtirmaslik, mayin va tekis kuylash
s) ravon va to‘liq ovozda kuylash
d) hamma javoblar to‘g‘ri

**11. Qanday asarlar vokal ansamblida ijro etiladi?**
a) cholg‘u
b) vokal, estrada
s) ariya
d) oratoriya

**12. Vokal ansambli necha kishidan tashkil topadi?**

a) 12, 13, 14, …
b) 2, 3, 4, …
s) 10, 11, 12, …
d) 1

**13. Vokal triosi necha kishidan iborat ?**

a) 2 ta
b) 10 ta
s) 3 ta
d) 8 ta

**14. Vokal dueti necha kishidan iborat?**

a) 7 ta
b) 5 ta
s) 2 ta
d) 3 ta

**15. Vokal kvinteti necha kishidan iborat?**

a) 2ta
b) 6 ta
s) 5 ta
d) 3 ta

**16. Vokal kvarteti necha kishidan iborat?**

a) 4 ta
b) 2 ta
s) 3 ta
d) 6 ta

**17. Ansabl deganda nimani tushunasiz?**

a) uchtovushlik va akkordlarning birgalikda to‘g‘ri kuylanishi
b) dirijor bilan birga kuylash
s) jamoaning birgalikda, uyg‘unlikda kuylashi
d) dinamik nyuanslarni birgalikda kuylanishi

**18. Xor jamoasida ishlatiladigan davomli nafas turini aniqlang?**

a) qisqa va chuqur nafas
b) zanjirsimon nafas

s) shoshilmasdan olingan nafas
d) burundan o‘pkaga olingan nafas

**19. Erkaklarning qanday yuqori ovozini bilasiz?**
a) bariton
b) tenor
s) bas
d) soprano

**20. Erkaklarning eng past ovozini aniqlang?**
a) kontralto
b) alt
s) soprano
d) bas

**21. Qanday ovoz ayollar past ovozi deyiladi?**
a) bas
b) alt
s) soprano
d) tenor

**22. Ayollarning yuqori ovozini ko‘rsating?**
a) kontralto
b) tenor
s) bas
d) soprano

**23. Soprano partiyasining umumiy diapazoni:**
a) si – kichik oktava, do – 1 oktava, sol – 2 oktava
b) lya, si – kichik oktava, fa – 2 oktava
s) mi – kichik oktava, mi – 2 oktava
d) do, re – 1 oktava, si – 2 oktava, do – 3 oktava

**24. Alt partiyasining umumiy diapazoni:**
a) sol – kichik oktava, sol – 2 oktava
b) mi, fa – kichik oktava, re, mi – 2 oktava
s) lya – kichik oktava, lya – 2 oktava
d) do – 1 oktava, sol – 2 oktava

**25. Tenor partiyasining umumiy diapazoni:**

a) do, re – kichik oktava, si, do – 2 oktava
b) mi – kichik oktava, sol – 2 oktava
s) fa – kichik oktava, lya – 2 oktava
d) sol – kichik oktava, si – 2 oktava

**26. Bas partiyasining umumiy diapazoni:**

a) sol – katta oktava, lya – 1 oktava
b) fa – katta oktava, sol – 1 oktava
s) lya – 1 oktava, sol – 1 oktava
d) mi, fa – katta oktava, re, mi – 1 oktava

**27. Vokal-xorining umumiy diapazoni:**

a) re – 1 oktava, sol – 2 oktava
b) mi, fa – katta oktava, si – 2 oktava, do – 3 oktava
s) mi – 1 oktava, mi – 2 oktava
d) do – 1 oktava, fa – 2 oktava

**28. Vokal-xor jamoasining eng kam soni nechta bo‘lishi kerak?**

a) 15
b) 10
s) 6
d) 12

**29. Vokal-xor jamoasida talaffuz (diksiya)ning ahamiyati nimada?**

a) qo‘shiqning ligato uslubida kuylanishi
b) so‘zlarning aniq va burro talaffuz qilinishi
s) so‘zlarning noaniq talaffuz qilinishi
d) so‘zlarning uzib kuylanishi

**30. Qaysi uslub ko‘p ovozlikka o‘tishda qo‘llaniladi?**

a) kanon uslubi
b) garmonik uslub
s) polifonik uslub
d) uchtovushliklarni kuylash uslubi

**31. “Doirani chaling” qo‘shig‘ida o‘zbek xalqining qaysi marosimiga xosligi kuylangan?**

a) gul sayli marosimiga

b) Navro‘z bayramiga
s) hosilni yig‘ib-terib olish marosimiga
d) to‘y marosimiga

**32. Sochga taqilgan ko‘zmunchoq nimaning timsolini belgilaydi?**
a) qizlarning erki o‘z qo‘lida emasligini anglatadi
b) ota-onasining rayiga qizning qarshi bormasligini bildiradi
s) qizning go‘zalligidan darak beradi
d) ko‘ngil qo‘yganiga etishishini bildiradi

**33. Bolalar va ayollar xori uchun asarlar qaysi musiqiy kalitda yoziladi?**
a) bas kalitida
b) skripka kalitida
s) alt kaliti kalitida
d) tenor kalitida

**34. 2 qatorli aralash xor asarlarida erkaklar partiyasi qaysi musiqiy kalitda yoziladi?**
a) bas kalitida
b) skripka kalitida
s) alt kalitida
d) tenor kalitida

**35. Aralash xor asarlari qaysi musiqiy kalitlarda yoziladi?**
a) skripka va bas kalitida
b) skripka kalitida
s) skripka va tenor kalitida
d) alt va tenor kalitida

**36. Metso piano, metso forte, krishendo, diminuendo – asarda nima maqsadda qo‘llaniladi?**
a) ritmni his qilish uchun
b) tovush balandligini pastga tushirish va yuqoriga ko‘tarish uchun
s) to‘g‘ri va aniq nafas olish uchun
d) tovush hosil qilish uchun

## Test savollarining javob kaliti

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **1.** | **s** | **13.** | **s** | **25.** | **a** |
| **2.** | **a** | **14.** | **s** | **26.** | **d** |
| **3.** | **s** | **15.** | **s** | **27.** | **b** |
| **4.** | **b** | **16.** | **a** | **28.** | **d** |
| **5.** | **d** | **17.** | **s** | **29.** | **b** |
| **6.** | **a** | **18.** | **b** | **30.** | **a** |
| **7.** | **b** | **19.** | **b** | **31.** | **b** |
| **8.** | **b** | **20.** | **d** | **32.** | **s** |
| **9.** | **d** | **21.** | **b** | **33.** | **b** |
| **10.** | **d** | **22.** | **d** | **34.** | **a** |
| **11.** | **b** | **23.** | **d** | **35.** | **a** |
| **12.** | **b** | **24.** | **b** | **36.** | **d** |

## Xulosa

Ijrochining musiqiy ovozini tarbiyalashda talabaning musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirish va eshitish orqali hamma vocal sifatlarini o‘sishini boshqarish asosiy o‘rinda turadi. Maqsadga erishishni ko‘zlab tanlangan asar orqali ovoz rivojlanishiga erishish mumkin.

Ijrochi ovozini tarbiyalash uchun o‘qituvchi o‘zi yaxshi ovozga ega bo‘lishi va talabaning xatolarini taqlid qilishga qobiliyati bo‘lishi kerak. Mushak va muskullarga oid ko‘rsatish usullari, ovoz apparatlari majmuini ishlatish usullari haqida ham chuqur bilimga ega bo‘lishi talab etiladi. Hamma holatda har bir talabaga alohida yondoshish, o‘qituvchining tanlagan yo‘li to‘g‘riligi, ovozning to‘g‘ri tarbiyalanganligi bilan belgilanadi. Og‘zaki tushuntirish ovozni to‘g‘ri hosil qilishda muhim holat, omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘qituvchi so‘z bilan tushuntirishni, o‘z ijrosida ko‘rsatishni talabada ovoz hosil qilishni, mushak ishlatish usullarining hamma yo‘llarini va darsga qanday musiqiy material tanlashni bilishi zarur. Ovoz sozlash mashqlari aniq pedagoguk yo‘nalishda har bir talabani imkoniyatiga qarab qulay registrda tanlanadi. Talabaga har bir mashqni maqsadini va natijada shunga erishish kerakligini tushuntirish kerak.

Vokaliz mashqdan badiiy asarga tayyorlovchi musiqiy material hisoblanadi. Badiiy asar o‘qituvchi tomonidan talabaning imkoniyatidan kelib chiqqan holda tanlanadi. O‘qituvchi asarning musiqiy, vocal-texnik, ijrochilik qiyinchiliklarini tahlil qilishni bilishi alohida ahamiyatga ega. O‘qituvchining ko‘p pedagogik musiqiy materiallarni bilishi va uni amalda qo‘llashi uning eng katta yutug‘idir. Bundan tashqari talaba o‘rganayotgan asari ustida mustaqil ishlashni ham bilish kerak. Shundagina o‘qituvchi ko‘zlagan maqsadiga va keng hamda boy repertuarga erisha oladi.

Shularni inobatga olgan holda “Asarlarning qisqacha tahlili” bo‘limida qo‘shiqlarning kuylash jarayonida nimalarga ahamiyat berilishi, nafasdan to‘g‘ri foydalanish, tovush hosil qilish, jarangdor, ravon va yoqimli tovush hosil bo‘lishiga erishish yo‘llari, so‘z talaffuziga ahamiyat berishning muhimligi masalalari xususida atroflicha so‘z yuritilgan.

## Foydalanilgan adabiyotlar


1. *Mazel L., Sukerman V.* Musiqiy asarlar tahlili. M., 1967
2. *Sposobin I.* Musiqa shakli. M., 1972
3. *Mazel L.* Musiqa asarlar tuzilishi. M., 1986
4. *To‘ychiyeva Z.* Polifoniyadan tahliliy mashq va masalalar. T., 1989
5. *Sarimsoqov B.* O‘zbek xalq marosim ocherklari. “Fan” nashriyoti. 1998
6. *Jo‘rayev M.* Navro‘z qo‘shiqlari. “Fan” nashriyoti. T., 2005
7. *Jalilov M.* Qo‘shiqlar xrestomatiyasi. 1-kitob. Nizomiy nomli TDPU– 2002
8. *Jalilov M.* Qo‘shiqlar xrestomatiyasi. 1-kitob. Nizomiy nomli TDPU– 2003
9. *Rahmatulloh Nosir.* Xurshid atongdur, oy-ano. Yangi asr avlodi. T.,2003
10. *Rahmatulloh Nosir.* Olam yuzin obod qil. Yangi asr avlodi. T.,2004
11. *Sodiqov O.* Vokal ansambli. Yangi asr avlodi. T., 2006
12. *Shukurov J.T.* Dirijorlik. “Istiqlol” nashriyoti. T., 2006

# Mundarija


| | |
|---|---|
| So‘z boshi | 3 |
| Kirish | 5 |
| Asarlarning qisqacha tahlili | 8 |
| Amaliy mashg‘ulot | 21 |
| Poyezd kelodi shoshib | 21 |
| Omon yor | 23 |
| Doirani chaling | 24 |
| Chechalar | 26 |
| Yor-yor I | 28 |
| Yor-yor II | 29 |
| Yor-yor III | 30 |
| Vohey bola | 31 |
| Yallajonim yalla | 33 |
| Usta Rashid temirchi | 34 |
| Soch popuk | 36 |
| Yallo samandaro | 37 |
| Dutor chalib | 38 |
| Seni sevib qoldim | 39 |
| Azim daryo | 41 |
| Chaman-chaman | 43 |
| Oy chiqsa | 44 |
| Ikkala marjoningdan | 46 |
| Sizni ayvon | 47 |
| Yorning guli galdi | 49 |
| Charxim | 51 |
| Jirov aytishuv | 53 |
| Rallojon | 56 |
| Lalaychi keldi | 58 |
| Aytishuv | 60 |
| Test savollar | 61 |
| Test savollarining javob kaliti | 67 |
| Xulosa | 68 |
| Foydalanilgan adabiyotlar | 69 |

ORTIQMATOV NIYOZALI
MELIQO‘ZIYEVICH

# JAMOA IJROCHILIGI VA USLUBIYOTI

Muharrir: Musaqulov A.
Sahifalovchi:

Bosishga ruxsat etildi: _______________Qog‘oz bichimi: 60x84 $^1/_{16}$.
Hisob-nashr tabog‘i: _____ b.t. Adadi: 500

__________________________________bosmaxonasida chop etildi.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

РЕСПУБЛИКА МЕТОДИКА ВА АХБОРОТ МАРКАЗИ

АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ НОМИДАГИ
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ МАДАНИЯТ ИНСТИТУТИ

НИЁЗАЛИ ОРТИҚМАТОВ

# ЖАМОА ИЖРОЧИЛИГИ ВА УСЛУБИЁТИ

Олий ўқув юртлари учун
ўқув-методик қўлланма

Тошкент - 2009

*Ушбу ўқув-методик қўлланма Абдулла Қодирий номидаги Тошкент Давлат Маданият институти илмий кенгашининг 2008 йил 28 апрелдаги 8-рақамли йиғилишида муҳокама қилинди ва нашрга тавсия этилди.*

«Жамоа ижрочилиги ва услубиёти» ўқув-методик қўлланмаси маданият ва санъат олий ўқув юртлари бакалавр йўналиши талабалари учун мўлжалланган. Айни пайтда ўқув-методик қўлланмадан мусиқа, санъат, маданият ва педагогика институтлари талабалари ҳамда маданий–маърифий муассасалар қошида ташкил этилган жамоалари ҳам ўқув, иш жараёнида фойдаланишлари мумкин.

**Масъул муҳаррир:**

**Мусақулов А.** – филология фанлари доктори

**Тақризчилар:**

**Мирзаев Қ.Т.** - Абдулла Қодирий номидаги Тошкент Давлат Маданият институти “Вокал жамоаларига раҳбарлик, мусиқа тарихи ва назарияси” кафедраси мудири, профессор

**Носиров Р.Ҳ.** - Абдулла Қодирий номидаги Тошкент Давлат Маданият институти “Вокал жамоаларига раҳбарлик, мусиқа тарихи ва назарияси” кафедраси доценти, филология фанлари номзоди

**Асарларни нотага олувчи:**

**Шукуров Ж.Т.** - Абдулла Қодирий номидаги Тошкент Давлат Маданият институти “Вокал жамоаларига раҳбарлик, мусиқа тарихи ва назарияси” кафедраси доценти, Ўзбекистон Республикаси санъат арбоби

## СЎЗ БОШИ

Қўшиқ - халқ лирикасининг тарихий асосларига кўра энг қадимий ижод ва ижро характерига кўра энг оммавий кўринишидир. Ўзбек халқи қўшиқни шакллантирган куй ва сўз тарихини Одам Ота билан боғлаб:

Соз билан суҳбатни ёлғон деманглар,
Одам Ота бино бўлгандан бордир.
Обил билан Қобил эна қорнида
Улар ер юзига келгандан бордир, -

каби термалар яратган. Ўзбеклар қўшиқ деганда, умуман халқ шеъриятини тушунишди.

Ўзбек фольклоршунослигида қўшиқлар, айниқса, улардаги куй ва сўз уйғунлиги, бир-бирига нисбати жуда кам ўрганилган.

Маълумки, ***“фольклор”*** сўзи биринчи марта 1846 йилда инглиз олими Вильям Томсон томонидан илмий истеъмолга киритилиб, унинг луғавий маъноси ***“халқ донолиги”*** демакдир. Аммо бугунги кунда халқаро илмий атама сифатида унинг маъноси жуда кенг. Масалан, Англия ва АҚШда фольклор дейилганда – халқ шеърияти, насри, мусиқаси, рақси, рассомлик, диний эътиқоди, амалий саънати, ҳатто биноларнинг анъанавий қурилишигача тушунилади. Ўзбек фольклоршунослигида фольклор сўз саънати сифатидагина қабул қилинган. Биз халқ саънатининг бошқа соҳаларини – мусиқа фольклори, халқ томоша саънати, халқ хореографияси атамалари билан ифодалаймиз. Бу, бир томондан, тадқиқотчи учун тадқиқ доирасини аниқ чегаралаб олишга маълум бир имконият берса, икккнчи томондан материални илмий аниқ таҳлил қилиш, табиатини белгилашда қийинчиликлар туғдиради. Бундай зиддият, айниқса, халқ қўшиқлари тадқиқида равшан кўринади. Чунки унинг табиатини куй ва сўз бирлигисиз тўлиқ тушунтириб бўлмайди. Қўшиқда куй ва сўз бирлиги бир пайтнинг ўзида намоён бўлади. Куй сўзсиз ҳам бизга эстетик завқ бериши, қандайдир таассуротлар уйғотиши мумкин. Аммо унда маъно бўлмайди. Қўшиқ эстетик завқ ва семантик маъно бирлигини юзага чиқаради.

Ўзбек қўшиқларининг етук билимдони М.Алавиянинг ишларида қўшиқларнинг мусиқавий жиҳатлари, масалан, ёр-ёрларнинг икки хил оҳангда куйланиши ҳақида қайдлар мавжуд. Шунингдек, мусиқа фольклорининг жанрлари ҳақида ҳам қатор ишлар қилинган. Бироқ, улар ҳар бири ўзича мустақил бўлиб

қолган. Қўшиқларнинг мусиқаси, нотаси ва унга илова тарзида матнларнинг берилиши  академик Ю.Ражабийнинг кўп томлик «Ўзбек халқ мусиқаси»  монументал асаридан бошланади.

Ниёзали Ортиқматов ана шу йўналишни ривожлантириб, халқ қўшиқларининг тарихи, табиатини ёритишда мусиқа ва сўз бирлигидан, аникроғи, ритмик-мусиқавий ва ритмик сўз уйғунлигидан келиб чиқиб, изланаётган ёш олимдир. Унинг тадқиқ методи қўшиқни сўз ва куй бирлигидан келиб чиқиб ўрганиши билан характерланади Мусиқа ва сўз фольклорни уйғунлаштиргани билан янгилик касб этади.

Ҳозирги кунда Ниёзали Ортиқматов Абдулла Қодирий номидаги Тошкент Давлат Маданият институти “Вокал жамоаларига раҳбарлик, мусиқа тарихи ва назарияси” кафедрасида ўқитувчи лавозимида фаолият олиб боради. Шу билан бир қаторда Алишер Навоий номидаги Тил ав адабиёт институти аспиранти. Ушбу ўқув-методик қўлланмаси унинг жиддий ишидан бир тажриба бўлиб, у маданият ва саънат институти талабаларининг халқ қўшиғини тушуниш, ўрганишларида яқиндан ёрдам беради, деб ҳисоблайман.

**А. Мусақулов**
**филология фанлари доктори**

# КИРИШ

Республикамиз истиқлолга эришгандан сўнг кўп асрлар мобайнида аждодларимиз томонидан яратилган улкан маънавий ва маданий меросимизни қайта тиклаш асосий масалалардан бирига айланди. Қабул қилинган “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”дан келиб чиққан ҳолда ўзбек халқ маданияти ва маънавияти тарихини, айниқса унинг мусиқа маданияти тарихини ўрганишга алоҳида эътибор қаратила бошланди.

Халқаро миқёсида ҳар икки йилда ўтказилаётган Самарқанддаги “Шарқ тароналари” халқаро мусиқий фестивали, Республика миқёсидаги “Ниҳол”, “Келажак овози” танловлари, ҳар йили ўтказилаётган “Ўзбекистон – Ватаним маним” кўрик-танловлари ёшларимизнинг миллий санъатимиз ва мусиқий меросимизни қизиқиб ўрганишларига кенг йўл очиб бермоқда.

Юртбошимиз Ислом Абдуғаниевич Каримов “Юксак маънавият – енгилмас куч” асарида таъкидлаганларидек:

*“Инсоннинг руҳий камолоти ҳақида гапирар эканмиз, албатта бу мақсадга мусиқа санъатисиз эришиб бўлмайди. Халқимиз ҳаётида мусиқа азалдан беқиёс ўрин тутиб келади . . . Мусиқа садолари қайси халқ ёки миллат вакили томонидан ижро этилмасин, энг эзгу, юксак ва нозик инсоний кечинмаларни ифода этади . . . Барчамизга аёнки, куй-қўшиққа, санъатга муҳаббат, мусиқа маданияти халқимизда болаликдан бошлаб, оила шароитида шаклланади. Уйида дутор, доира ёки бошқа чолғу асбоби бўлмаган, мусиқанинг ҳаётбахш таъсирини ўз ҳаётида сезмасдан яшайдиган одамни бизнинг юртимизда топиш қийин, десак, муболаға бўлмайди”.*

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, ўзбек халқ мусиқа мероси бой ва серқиррадир. Унда мужассамлашган ранг-баранг халқ мусиқий намуналари асрлар оша авлоддан-авлодга ўтиб ривожланиб келган. Шу билан бирга халқимиз томонидан ҳар бир жанрнинг бадиий ва эстетик қиммати асраб-ардоқланиб келинган. Ўсиб келаётган ёш авлодни руҳий ва маънавий жиҳатдан мустақил ҳаётга тайёрлаш, уларни онгини миллий ва умуминсоний қадриятлар билан бойитишда миллий мусиқамизнинг, санъатимизнинг ҳамда мусиқий лицей, коллежлар ва мактабларнинг хизмати катта эканлигини алоҳида таъкидлаб

ўтмоғимиз мақсадга мувофиқдир. Профессор-ўқитувчиларнинг асосий вазифаларидан бири ўқувчи ва талабаларга тўғри йўл кўрсатиш, ўз олдиларига қўйиган асосий мақсадини тушунтириш, ҳар бир мусиқий асарнинг бадиий ғоясини тўғри очиб бериш, ижро воситаси билан тингловчига етказишни ўргатиш, ҳар бир асарни ўрганиш жараёнида жиддий ёндашишга ундаш, мунтазам равишда ўз устида мустақил ишлашга ўргатишдан иборат.

Сўзнинг, матннинг интонацион, ритмик яхлитлигидаги ноаниқлик, баъзан сўз бўғинларининг нотўғри бўлиниши ижро қилинган жумлани маъносини идрок этишни қийинлаштиради. Мусиқашуносликда сўз ва куйнинг муштараклик муаммоси нутқ ритмининг мусиқада акс эттирилиши ва нутқий ҳамда мусиқий оҳанг ўртасидаги алоқалар билан боғлигидир. Матнни куй билан боғлашда эътиборни оҳангга, паузага, мантиқий урғуга қаратиш керак. Шунда ўзбек тили талаффузининг хусусияти, унинг ўзига хос оҳангдорлиги муҳим фонетик воситалар тизими сифатида намоён бўлади. Бастакор ва композиторларнинг бу йўналишдаги ютуқлари миллий ўзбек мусиқасининг ривожида ижобий ўзгаришларга олиб келади.

Ушбу методик-қўлланманинг вазифаси жамоа ижрочилигини ривожлантириш, талабаларнинг миллий классик санъатимизни ўрганиб боришлари ва миллий мусиқа меросимизнинг хазинасини янада бойитиб, асраб авайлаб келажак авлодга етказиб бериш мақсадида яратилди.

Халқ ижодиётига мансуб барча қўшиқлар ўзининг яратилиш тарихи ва ўзига хос ижро услубига эга бўлиб, турли мавзу ва мазмун касб этади. Ушбу ўкув қўлланмага аввало меҳр-оқибат, севги-муҳаббат мавзулари билан боғлиқ қўшиқ намуналари киритилди. Севги инсонга берилган буюк неъмат. Халқ қўшиқлари, хусусан унинг лапар, айтишув ва ялла каби жанрларида ушбу мавзу янада теран ифодаланган. Айтувчи бу нозик кечинмаларни қай даражада ҳис этиб, уни ўз ижросида тўлиқ намоён қила билса, тингловчи шунчалик завқ-шавқ туяди. Бинобарин, ишқ муҳаббат мавзусидаги барча халқ қўшиқларини яратилиши албатта ошиқ инсонларнинг ижод маҳсули эканлиги шубҳасиздир. Акс ҳолда халқ орасида “суйган қўшиқчи, куйган бахши” каби ибораларни яшаб келишига асос топилмас эди. Лирик қўшиқлар матнини ўрганиш бу қўшиқларни фақат муҳаббат туйғусини ҳис қилган шахслар яратган деган хулосага олиб келади.

Ариқ бўйи гул ҳовуз (ей), омон ёр,
Гул тергани келганмиз (ей), омон ёр.
Гулни баҳона қилиб (ей), омон ёр,
Ёр кўргани келганмиз (ей), омон ёр -

маҳбубаси ишқида, васлида ёнаётган кўнгилнинг дил изҳори бу.

Ўқув-методик қўлланмада берилган барча қўшиқ намуналари халқ орасида азалдан ижро этиб келинган. Уларнинг баъзилари тўй-базмларда, баъзилари эса халқнинг қайсидир маросимлари билан боғлиқ ҳолда яратилган ва ижро этилган.

Ўзбек санъати мўъжизаларни кашф этган. Бу гулзор-у боғ аро Комилжон Отаниёзов, Отажон Худойшукуров, Маъмуржон Узоқов, Фаттоҳхон Мамадалиев ва яна кўплаб бу номларни давом эттириш мумкин. Маънавияти, маърифати, маданияти ва санъати барқ урган халқ доим олдинга интилади. Бугунги кунда миллий куй, қўшиқ, айниқса анъанавий услубдаги ижро йўлларини ўрганиш, уни ҳар хил йўлда безак бериб сайқаллаш долзарб масалалардан биридир. Ҳар бир куй, қўшиқ, оҳанг ҳар инсон дилини хушлайди, уни ёруғлик ва эзгулик сари етаклайди. Ҳақиқий санъат ҳеч қачон ўлмайди.

Юқоридаги фикрларни инобатга олиб тайёрланган ушбу ўқув-методик қўлланма маданият ва санъат олий ўқув юртларининг бакалавр йўналиши талабалари учун мўлжалланган. Қўлланмада берилган ҳар бир қўшиқ намунаси ўзининг изоҳи, мусиқий таҳлили ва ижро этиш услублари ҳақида тавсиялар келтирилган.

# АСАРЛАРНИНГ ҚИСҚАЧА ТАҲЛИЛИ

## Поезд келоди шошиб

Наманганлик қизлар гўзал ва замонасига муносиб бўлишини таърифлаб куйланган бу қўшиқ Фарғона водийсида, айниқса Наманган вилоятида қизлар томонидан ижро этилади.

“Поезд келоди шошиб”-дея куйлаётган қиз кимнингдир йўлига интизор. “Қиз-қизил гул бўлдим сўлдим”-дея ўз ёрининг дийдорини кўриш ҳасрати ила ўртанаётганига, севсанг бир йўқлаб ҳолимдан хабар олмайсанми деб ёрни бевафоликда айблашига ишорадир. Маҳбубуа нақаротда “Гулшан гуллар гулиман”–деб куйлаб ўз ёрига вафосини ифодалаган. Ёрини сабр бардош билан кутиши натижасида у бир куни қайтиб келиб хол сўраши айтилган. Олма ва беҳи сувда қалқиб оқиб келиши севгига вафодор бўлиш, севган кишисига етишиш маъносини билдирган.

Ушбу қўшиқ аёллар овозига мўлжаллаб ижод этилган бўлиб, овозини майин ва текис бўлишига ёрдам беради. Хонандадан яхши талафуз, яхши нафас ва овозни зўриқтирмасдан ижро этишни талаб этади. Қўшиқдаги ундов такрорларини ёқимли куйлаш керак.

## Омон ёр

“Омон ёр” қўшиғи асосан Фарғона водийсида ижро этилади. Қўшиқда қизлар инсон дилини қувонтирадиган чиройли қизил гулга ўхшатилади.

Айтувчиларнинг имкониятига кўра бу қўшиқ икки банд ёки ундан ортиқ бўлиши, нақаротда Андижон, Марғилон каби худуд номлари ўзгариб келиши ҳам мумкин. Қўшиқдаги айрим сўзлар айтиш жараёнида ўзгарса ҳам қўшиқнинг жозибаси, асл маъноси сақланиб қолади. Масалан, “Жон укам”, “Оҳ укам”, “Вой укам” каби вариантларда ҳам куйланади. “Санинг ширин сўзингдан” ибораси эса такрор айтилганда “Санинг шахло кўзингдан” деб ижро этилади.

Бу қўшиқ халқимиз орасида энг кенг тарқалган ва севиб ижро этиладиган қўшиқлардан бири ҳисобланади.

Ўзбек халқ қўшиқларидан бўлган “Омон ёр” ижросида унча катта диапозон талаб қилмасада, лекин кўтаринки руҳда, равон, тўлиқ овозда куйлаш керак. Қўшиқни юқори товушдан пастки

товушга қараб куйлашда айтиб ўтганларимизга аҳамият бериш хонандани жарангдор ва аниқ талаффузга эга бўлган ҳолда куйлашга ундайди.

## Доирани чалинг

Бу қўшиқ муайян бир маросим ва байрамларда бир гуруҳ аёллар томонидан куйланади. Унда ёш қизлар ва аёллар ўзларига оро бериб, ясан-тусан қилганликлари, бунинг сабаби кенг нишонланадиган "Наврўз байрами" эканлиги таъкидланади. Наврўз кунлари қиз болалар чучмомолардан сочпопуклар тақиб, қошларига ўсма қўйиб, ўзларига оро беришган. Наврўз таомларидан ялпиз сомса пиширилиб ёши улуғ момоларга тортиқ этишган. Улар баҳорга эсон-омон етказганига шукур қилиб, омонлик-сомонлик тилашган. Ёшлар шўх куй-қўшиқлар куйлаб, ўйинга тушган. Наврўз байрамини қувноқ кайфиятда кутиб олишган.

Бу қўшиқ ҳам аёллар овозига мўлжаллаб ёзилган. Қўшиқ нақарот билан бошланади. Кейинги бандлар хонандадан яхши нафас, тўлиқ ва равон овоз билан ижро этишни талаб этади. Ижро пайтида сўзларни тўғри талаффуз қилиш ва овозни зўриқтирмаслик талаб қилинади.

## Чечалар

Халқ поэтик шеъриятига мансуб асарлар бўлган қўшиқларда инсон кечинмалари акс этади. Бир қатор лирик қўшиқлар йигит ва қизларнинг айтишувларидан иборат бўлиши мумкин. Бу қўшиқларда иложи борича йигитлар бир тараф, қизлар бир тараф бўлиб сўз ўйинида бир-бирларидан ғолиб келишга уринадилар. Аслини олганда бундай айтишув қўшиқлари йигит-қизларга ҳаёт гўзаллиги, завқи ҳақида, ва улардан баҳраманд бўлиш ҳақида маълумот беради.

Бу қўшиқда ҳам чечалар-янгалар доимо хизматга шай, кўтаринки кайфиятда юришлари, шу билан бирга янгалар кўпинча шўх-шаддод бўлишлари акс этган. Давра тўридаги йигитлар ҳам янгаларга бас кела оладиган бўлиб, белларини маҳкам боғлашлари – айтишувга тайёр туришлари лозимлиги ҳақида сўз боради. Йигитларнинг баланд тоғлардан сурмаларни саралаб териб келганликлари, узоқ сафардан қайтаётган йигитларнинг қораси

кўринса, қизларнинг девор оша мўралаб қарашганлари, йигитларнинг эса уларга албатта, гап отишганлари, шундан савол-жавоб айтишувлари бошлангани моҳирона куйланади. Қизлар ноз қилиб, гапимиз ёқмаса, сурма берсангиз қайтамиз дея жавоб қилишади.

Йигитлар ва аёллар овозига мослаб тўқилган қўшиқ темп хусусиятидан келиб чиқиб, хонандаларни сўзларни бурро, равон ва тўғри талаффуз қилишга ундайди. Нақарот қисмидан бошланган қўшиқ банд билан давом этади ва йигитлар ижро этади. Иккинчи бандда эса қизлар йигитларнинг сўзларига жавоб тариқасида ижро этишади.

## Ёр – ёр

Ўзбек халқининг оилавий маросимларида, тўйларида ўлан, ёр-ёр айтилган. Ёр-ёрлар матни билан танишар эканмиз, уларда ёш оиланинг келажакда бахтли бўлиши, келин-куёвнинг бир-бирига садоқат билан умр кечиришга умид билдирилганлигига гувоҳ бўламиз. Ёр-ёрларда йигит ва қизнинг янги ҳаёт бўсағасига қадам қўяётгани алоҳида таъкидланади. Турмуш тотувликдан бошланса, иноқлик етакчи бўлса, кейинги ҳаёт ҳам фаровон ўтишлиги кўрсатилади. Шунинг учун келин-куёвнинг иноқ турмуш бошлаши қўшиқларда қайта-қайта тилга олинади.

Шуни ҳам айтиб ўтиш жоизки, бевосита тўйнинг ўтказилиш шароитини кўз олдимизга келтирсак, чор-атрофда ўйин кулгуларга эътиборнинг кучлилигини назарда тутсак, ёр-ёрлар акс эттирилган қайғу-аламлар тўй иштирокчиларига у қадар катта таъсир кўрсатмаслиги ҳам ўз-ўзидан равшан бўлади:

Ҳай-ҳай ўлан (о), жон ўлан,
Қизлар келар ёр (а), қизлар келар (о) ёр-ёр.
Келинчакнинг(о) кўзлари,
Ёшга тўлар ёр (а), ёшга тўлар(о) ёр-ёр.

Маросим қўшиқларида ёр-ёрлар бадиий жиҳатдан мукаммаллиги билан бошқа қўшиқлардан ажралиб туради. Хусусан, ёр-ёрларда параллелизм, тазод санъатлари кўпроқ учрайди. Параллелизмда бир воқеа-ҳодисани иккинчи бир воқеа-ҳодисага қиёсланса, тазод бир воқеа-ҳодиса иккинчисига қарама қарши қўйилиб қаршилантирилган ҳолда қўлланилади:

Ҳай-ҳай ўлан, жон ўлан (о), гул қайда бор,

Ёр-ёра, гул қайда бор.
Бир яхшига бир ёмон (а), ҳар жойда бор,
Ёр-ёра, ҳар жойда бор.

"Ёр-ёр" қўшиғи Республикамизнинг ҳар бир жойида, айниқса, қизни бошқа хонадонга келин қилиб олиб кетаётган пайтда ижро этилади. "Ёр-ёр" қўшиғида бўлажак келинни, куёвни ва унинг хонадонини, келинни сепини, ота-онасини рози бўлишлигини ва шу каби кўплаб мавзулар тасвирланади. ёр-ёрларни фақат аёллар ижро этишини ҳам алоҳида таъкидлаш лозим.

Шуларни инобатга олиб ушбу қўшиқ хонандаларни чиройли ва майин овоз билан, ҳар бир сўзни маромига етказиб, тўғри ва таъсирчан холатда куйлашга ундайди. Албатта, куйлаш жараёнида овозни зўриқтирмасдан, тўғри нафас билан куйлаш керак.

Ёр-ёр қўшиқларининг қофияланиш тарзи кўпинча ***а-б-а-б***, баъзан эса ***а-б-в-б*** тарзида бўлади.

## Воҳей бола

Қўшиқнинг ушбу варианти Қашқадарё вилояти Деҳқонобод туманида ижро этилиб келинган. Қўшиқда халқимизнинг байрамларга, тўйларга бой эканлиги, тўйларда ёшу-кекса бирдек қувонч ва шод-хуррамликда юришлари куйланган. Тўйлар кўп бўлиши халқимизнинг тинч, осойишта, бахтли ҳаёт кечиришларидан дарак бериши, Деҳқонобод боғларида тўй томошалар кўп бўлишини тилаш, олқишлар ёғдириш, кекса ва ёши улуғларни ҳурмат қилиб, уларга хизмат қилиб чарчамасликка ундалган.

Ушбу қўшиқ йигитлар ва аёллар томонидан ижро этилади. Бандларни йигитлар, "воҳей бола ёрей" сўз такрорини эса аёллар куйлайди. Қўшиқ темпи тез бўлганлиги куйлаш жараёнида ҳам йигитлар, ҳам аёллардан сўзларни аниқ талаффуз, равон ва тўлиқ овоз билан ижро этишни талаб қилади.

## Яллижоним ялла

Қўшиқда баҳор фаслидаги уйғонишнинг дилларга кўчгани куйланади. Гуллар териб ўз севган ёрига бериш, унинг ойдек жамолини ҳар кун кўриш завқи ифодаланган. Кўнглидаги ёр дилига йўл топишга ҳаракат қилаётган ошиқ унинг нозидан,

инжиқликларидан ҳайрон. Ёрга сўзи ўтмаслигидан ҳасрат чекиб, ёниб куйламоқда.

Ушбу қўшиқ аёллар томонидан шошилмасдан, қўшиқ матнларидан илҳомланиб, ижрога сайқал бериб, жарангдор ва тўлиқ овозда ижро этилади. Ижро давомида тўғри нафас олиб ундан фойдаланган ҳолда чиройли ва таъсирчан овоз ҳосил қилишга ҳаракат қилинади. Учинчи банднинг учинчи мисрасини куйланганда мусиқасиз овознинг ўзи билан ижро этилади. Шу вақт хонанда овозининг чиройини ва таъсирчанлигини кўрсата олиши керак.

## Уста Рашид темирчи

Ушбу намуна меҳнат қўшиқлари сирасига киради. Темирчи уста шарафига яхши тилаклар, устанинг ишига муваффақиятлар тилашади.

Темирчи уста турли асбоблар – ток қайчи, ўроқ, кетмон ясаб, кишиларни оғир меҳнатларини енгиллатишга ҳисса қўшади. Баҳор ойи барча учун ишнинг қизғин палласи ҳисобланиб, темирчи устанинг ҳам буюрмалари кўпайган давр. Буюртмаларни ўз вақтида бажарган уста меҳнати кишилар томонидан олқишланиб, раҳтамлар айтилади.

Қўшиқ йигитлар учун мўлжаллаб ёзилган. Қўшиқни яккахон хонандалар билан бирга йигитлар жамоаси ижро этади. Иккинчи ва учинчи бандларида яккахонлар ижро қилади. Қолган бандларни эса жамоа биргаликда куйлайди.

Яккахонлар айтиш жараёнида кварта интервали оралиғидаги ноталарни тўғри ва тоза ижро этиши керак. Бунинг учун албатта, тўғри нафасдан фойдаланиш лозим бўлади. Бу эслатма жамоа хонандалари учун ҳам таъллуқлидир. Чунки яккахонлар ижро этгандан сўнг жамоа ҳам такрорлайди.

## Соч попук

Соч попугим учида (ё), кўзмунчоғим бир шода,
Йиғламаган қиз борму (ё), бу бевафо дунёда.

Қўшиқ бўйи етган қиз тилидан айтилаётган бўлиб, ҳусну латофатда, гўзалликда тенги йўқ, кўзга яқин бўлган қиз кўнгил қўйганига етолмасдан бу бевафо дунёдан нолиш қилади.

Қизларнинг кўзмунчоқли сочпопук тақиши – гўзаллигидан дарак берса, ўчоқ боши ва баланд девор билан ўралган қўрғон эса қизни ўз эрки қўлида эмаслигига, кўнгли тилаганига етолмаслигига, ота-онаси қизни ўзлари ҳоҳлаган кишига бераётганлигига ишора қилинади.

Тор ҳовли, катта тол ва унинг сояси ёш гўзал қизга қарама-қарши қўйилган тимсол бўлиб, ёшлик, гўзаллик ҳамиша офтобни, кенгликларини қўмсайди. Бунга етолмаса дунёнинг бевафолигидан юрак бағри эзилади ва қонга тўлади.

Унча катта бўлмаган бу қўшиқ аёлларни сўзларни тўғри талаффуз қилишга, тўғри нафасдан фойдаланиб куйлашга, тўлиқ, чиройли овоз билан шошилмасдан куйлашга ундайди.

Ўз навбатида хонандалардан хушчақчақлик, овозни тўлиқ ва бaралла қўйиб ижро этишни талаб қилади.

Қўшиқнинг сўнги банди ва мисраларини йиигитлар ижро этади.

## Ялло самандаро

“Гул” – гўзаллик рамзи бўлганлиги учун ҳам халқ қўшиқларида қизлар гулга, нозик ниҳолга ўхшатилади. Айни матн мазмунида қиз қошларининг қаролиги матҳ этилсада, боғбон гулни қанчалар эҳтиёт қилиб парвариш қилганидек, ота-она ҳам ўз фарзандини шунчалик авайлаб вояга етказиши, улғайган қизни эса сўраб келган ҳар қандай йигитга узатмаслиги, унинг ота-онасини, насл-насабини сўраб суриштирилиши ёритилган. Йигит қизни севиш йўлида қанчалик қаландар бўлмасин, лекин қизнинг ота-онаси рози бўлмаса, унга етишиш амри маҳол. Шунинг учун матнда келтирилган “қора қош”нинг орқасидан йигитнинг бошига анчагина бало келиши ва унга даво излаб ўзини ҳар ёнга урмасин, даво топиши мушкуллиги айтилади.

Ушбу халқ қўшиғи йигитлар овозлари учун яратилган. Нақарот ва банддан иборат ушбу халқ қўшиғи ижрода йигитлардан жуда катта талант ва маҳорат талаб этади. Чунки ижро вақтида овозни зўриқтирмасдан, енгил, равон, сўз талаффузига, ундов такрорларига аҳамият берган ҳолда куйлаш керак.

## Дутор чалиб

Бу қўшиқ ёр соғинчи, хижрон азоби дилини ўртаётган қиз томонидан куйланади. “Дутор” ёрини соғинган қиз қалбини тимсолини ифодалаган. Қўшиқда дутор торининг узилиб кетиши эса, қиз қалбини азобга, қийноққа соладиган, севган ёрининг “ўзга ёр”и борлигига ишора сифатида келтирилади. Бу эса қизни янада ўртанишини, ғам-алам чекишини кўрсатади. Қиз кўнглини ўртаган дард-аламни унутиш учун ўзини меҳнат билан овутади.

Фабриканинг йўлидан рўмолча топиб олиш – бу хижрон азобида қолган қиз ўз ҳис-туйғуларини қалбида сақлаган ҳолда меҳнат қилаётганини ифодалайди. “Рўмолча” – қиз қалбидаги ҳис-туйғулар, орзу-истакларнинг ифодаси тимсолидир.

Қадимдан қиз ўз қалбидаги туйғуларини рўмолчага гул солиш, кашта тикиш орқали ҳам ифодалаб севган ёрига тортиқ қилган. Бу билан йигит севгисига рози-ризолигини билдирган.

“Дутор чалиб” – ўзбек халқ қўшиғи куйининг ёқимлилиги ва енгил ижро йўли билан характерлидир.

Қўшиқ аёллар овози учун мўлжаллаб яратилган бўлиб, биринчи ва иккинчи бандлар секин темпда, учинчи ва тўртинчи бандлар эса тез темпда ижро этилади. Қўшиқ ижросида ҳам ундов такрорлар, ҳам қатор такрорлари ишлатилган. Ушбу такрорларни ижро этишда хонандадан эътиборлилик, майинлик, чиройли овоз ҳосил қилишлик маҳорати талаб этилади.

Қўшиқнинг охири эса яна секин тепмда ижро этилиб, якунланади.

## Сени севиб қолдим

Қора қош – гўзал қиз тимсоли. Қўшиқда Лайли ва Мажнун рамзларига мурожаат қилинган ҳолда севги, фожиали тақдир ифодаланган:

Мен Лайлига тенг келмасдим,
Мажнунларга етмас эдим.
Қошингга бир келмас эдим,
Сени севиб қолдим нетай.

Юқоридаги мисраларни айтган киши албатта, муҳаббат деб аталмиш сирли ва гаштли олам гўшасида сайр қилган. Муҳаббат қўшиқлари одатда бир шахс томонидан куй жўрлигида ижро

этилади. Аммо машҳур қўшиқлар гап-гаштакларда, турли муносабат билан кичик доирада ўтказиладиган йиғинларда жамоа бўлиб ижро этилиши ҳам мумкин.

Ушбу қўшиқ аёллар овозлари учун мўлжалланган.

Қўшиқ ижросида юқоридан пастга қараб куйлашда овозни зўриқтирмаслик керак. Бунинг учун тўғри нафас олиш, ундан тўғри фойдаланиш, сўзларни аниқ талаффуз этиш, жарангдор ва чиройли овоз ҳосил қилиш талаб қилинади.

## Азим дарё

Қўшиқда инсон ички кечинмалари, турмуш ташвишлари, ҳаёт тажрибасидан олган таассуротлари, сабоқлари орқали баён қилинади. Инсон ҳамма нарсани, ёшликнинг ҳам, гўзалликни ҳам қадрига ета билмоғи лозим.

Қўшиқда манманлик, мағрурлик инсон учун зарарли одатлар эканлиги ҳақида сўз боради. Камтарин инсон ҳар доим униб, ўсиб, муваффақиятларга эришиши мумкинлиги куйланади.

Ушбу қўшиқ профессионал қўшиқчилар ва хонандалар томонидан куйлаб келинаётган нодир асарлардан ҳисобланади. Куйининг соддалиги, ёқимлилиги, ижро этишда диапозонини унча катта бўлмаганлиги, куйлашда ҳам ортиқча қийинчиликлар туғдирмайди. Аксинча қўшиқни ўзлаштиришни енгиллаштиради.

Қўшиқни салмоқланиб, шошмасдан, сўз талаффузига ниҳоятда аҳамият берган ҳолда, “вой додай” ва “аламо” сўз такрорларини майин, чиройли ва таъсирчан қилиб куйлашга эришиш керак.

## Чаман – чаман

Айтганимиздек, ўзбек халқ қўшиқларида қизлар гулга, нозик ниҳолга ўхшатилади. Мана шу нозиклик, гўзаллик, латофат, иффатга йигитлар бефарқ эмас. Шундай экан албатта, йигит қалбида қизга нисбатан илиқлик уйғонади. Ошиқ йигит вақт топиб севгисини изҳор эткиси ва қизнинг қалбига йўл топкиси келади. Агар қиз йигитнинг севгисини рад этса, йигит ҳоли не кечишлигини тушунса бўлади.

Матнда ҳам қиз йигит севгисини рад этмоқда. Ошиқ йигит мақсадига етишолмай эл-юрт олдида юзи сариқ бўлганлигидан, “ўз элимдан кечмайман, сен бевафо ёр учун” – деб, ўзини овутмоқда.

Яна “Чаман-чаман, гул бўлсин,  элимда тўйлар бўлсин” – деб элу-юртга яхши ниятларини изхор этмоқда. Албатта эл-юрт тинч бўлса, шу юртга тўйлар ярашади, ўйин-кулги ярашади.

Қўшиқ тез темпда ижро этилади. Шунга кўра, тез ва тўлиқ нафасдан фойдаланиб куйлаш талаб этилади.

Қўшиқ сўзларини тез ва бурро-бурро айтиш, жумлаларни бир-биридан ажратмаслик, овоз жарангдорлигини йўқотмаслик, ёпиқ овоз билан ва тантанавор куйлаш хонандани профессионал санъаткор бўлишига ёрдам беради.

## Ой  чиқса

Қўшиқ лирик қаҳрамони кундуз куни кўкда офтоб чарақлаб турса, осмондаги юлдузлар кўринмайди, офтоб нурларига маҳлиё бўлиб, биздек юлдузни унутиб қўйдингизми, нега тез-тез келиб ҳол аҳвол сўрамайсиз? – дея куйлаяпди. Нақаротда кеча-кундуз ёрини ойдек жамолини ўйлаб, унинг ҳаёли билан яшаш истаги билдирилган. “Сув тўлқини, унинг йироқдан кўриниши”-севги кечинмалари билан боғлиқ. Ошиқ дил ўз севган ёрини тонгга қадар ўйлаб, йўлларини пойлаб чиқиши аниқ. “Дарё”, “сув” образлари севгига тимсол бўлиб келмоқда. Шундай бўлсада, ошиқ маъшуқаси дийдорини кўриш дардида, айрилиқ изтиробини тортаётганлигини ифодалаб келган.

Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий қаламига мансуб ушбу асар халқ қўшиқлари йўлида куйланган. Йигитлар овозига мослаб яратилган ушбу қўшиқ овоз диапозонини кенгайтириш, тўғри нафас олиш йўлларидан фойдаланиш, сўзларни тўғри талаффуз этиш, майин ва жарангдор овоз ҳосил қилиш, юқори регистрларда куйлашда тўғри ва тоза товуш ҳосил қилиш учун ёрдам беради.

Қўшиқ банд ва нақаротдан иборат бўлиб, асосий тоналикка нисбатан баланд товушдан бошланиши хонандадан катта ижро маҳоратини талаб этади. Учинчи бандни юқори товушларда куйлаганда тўғри нафасдан фойдаланиш керак. Шунда тўғри товуш ҳосил қилишга эришилади.

## Иккала  маржонингдан

Ака бозор борсангиз (а),
Менга маржон келтиринг,

Аямга билдирмай ўзимга беринг.

Ҳа! Ўзбек қизларининг андишалиги, одоби, ор-номуси шунчалик кучлики, ҳаттоки севгисини ҳам яширади. Маъшуқ бозордан келтирадиган маржонни ҳам, дўппини ҳам маъшуқа онасига билдирмасдан беришлигини, агар билиб қолгудай бўлса, ҳар иккисига ҳам оғир бўлишидан огоҳлантириб, ялиниб сўрайди. Йигит эса ўзи бозордан олиб келган маржонини қизга қанчалар ярашганлигидан қувонади.

Унча катта бўлмаган халқ қўшиғи аёллар ва йигитлар учун ёзилгандир. Асосий бандларни аёллар ижро этса, нақарот қисмини йигитлар ижро этади.

Қўшиқ содда ва енгил ёзилган бўлса ҳам, икки севишганларнинг дил исҳорларидир. Куйлаш жараёнида севишганларни ички туйғуларини ҳис этиш керак. Шу билан бирга жозибали, тантанавор, енгил , равон ва эркин куйламоқ лозим.

## Сизни айвон

Ушбу қўшиқнинг ижросидаги сокинликдан билиниб турибдики, ёрнинг келиши, лекин маъшуқага ҳеч қандай сўз демай яна кетиб қолиши интизорлик билан кутиб турган қизнинг юрагига армон бўлган. Лекин қизнинг сабр тоқати тоғда, сув йўқ ерда ҳам узоқ умр кўрадиган арчага ўхшатилган. Унинг севган ёридек ёр ҳеч қаерда йўқлиги, ҳаттоки биргина жонини ҳам қурбон қилишлиги қизларнинг ўз севгисига бўлган ишончли садоқатини кўрсатади.

Қўшиқ шошилмай, ёқимли, нозик ва осойишта куйланади. Куйлаш жараёнида овозни бир текис чиқишига, сўзларни равонлигига, тўғри талаффузига аҳамият бериш керак.

Қўшиқнинг юқори товушларда куйлаганда овозни зўриқтирмасдан, ёпиқроқ, юмалоқ тарзда айтиб, тўғри нафасдан фойдаланиш даркор.

## Ёрнинг гули галди

Қадим замонлардан маълумки, бир-бирини севган ошиқ-маъшуқлар ҳамиша ҳам турмуш қуриш бахтига муяссар бўлавермайдилар. Шунинг учун лирик қўшиқларда дард, ҳасрат, алам мотивлари ҳам ўрин олган.

Қиз қалбидаги дард-аламларини ўз яқинларидан бири - опасига ошкор қилади.

Ушбу қўшиқ “Ошиқ Ғариб ва Шоҳсанам” достонидан олинган бўлиб, Шоҳсанам томонидан ижро этилган. Шоҳсанам ўз севган ёрини соғингани, шум рақибларнинг унга ўтказган тазйиқлари куйланган. Ғарибнинг келишига кимдир тўсқинлик қилдими ёки бошқа сабаблар борми? Аниқ ҳолатни билолмай хижрон азобида қийналаётган Шоҳсанамнинг ички кечинмалари қўшиқда ўта таъсирчан тасвирланган.

Ҳар бир хонанда куйлаганда, албатта, Шоҳсанамнинг ички туйғуларини ҳис қилган ҳолда, нозик, чиройли, майин товуш билан куйлаш керакки, эшитувчига лирик қаҳрамон ҳолати аниқ етиб борсин.

## Чархим

“Чархим” қўшиғи қадимда меҳнат жараёнида айтилган. Ҳозирда бу қўшиқ тўй-базмларда ҳам куйланиб келинмоқда.

Қўшиқда ўзбек қизларининг юзлари олма ва анор каби ширин меваларга ўхшатилади. қизлар берган бир коса сув йигитларга шарбатдек ширин туюлишига ишора қилинади.

Одамзотнинг табиати турлича. Шундай кишилар борки, йигит ва қиз орасига совуқчилик солади. Қўшиқда ҳам шундай кишилар ҳақида армон билан куйланаяпти.

Ушбу қўшиқ йигитлар ва аёллар овозлари учун ёзилган. Биринчи бандни секин тепмда аёллар ижро этади. Қолган бандлар эса тез темпда куйланиб, бандларни йигитлар, нақаротни эса аёллар айтишади.

Куйлаш жараёнида темпнинг ўзгариши, йигитлар ва аёллар овозларининг бир-бирига мос келиши, сўз талаффузи, чиройли товуш ҳосил қилиш хонандаларнинг ижро маҳоратини ўсишига ёрдам беради.

## Жиров айтишув

Бу қўшиқ Жиззах вилояти Зомин туманида айтилган. Қўшиқ икки қисмдан иборат. Йигит ва қизнинг айтишувидан иборат бўлган Биринчи қисмида йигит юрагига ўт солиб, дўмбирасини сайратган гўзал ва зукко қизларни таърифлаб, мақтаб, Зоминга ўлан

айтгани келганлигини билдиради. Қизлар йигитга қарата ўз кўнгил дардингни куйга солиб куйлаяпсан, қадримизга етадиган йигит бу елда ҳам бор экан, лекин бизга тенг келишга қурбинг етармикан дея куйлашади. Йигит қизларнинг булбулдек овозини, тотли, ёқимли сўзларини мақтаб, ҳаддим сиғса белингдан қучоқласам, буни отанг билса уйингдан қувса керак дея тегажоғлик қилиб куйлайди. Қизлар йигитга қарата билиб-билмай оғзингга келганини сўзлайвермасликни, бу элатнинг қизлари тўйдан олдин бундай бежо ишларни қилмайди дея жавоб беришади. Йигит ҳам шу элнинг боласиман, қизлар тоғнинг гул лоласиман деса, биргаликда элнинг катталари, ота-боболар кенгашиб, дуо берса, тўйни тўйга улайлик деб куйлайди.

Қўшиқнинг иккинчи қисми эса мазмунан ўзгачароқ. Чарх йириб қўшиқ айтаётган қизлар ўз соғинчларини куйлайди. Чархни ғум-ғум этиши, овозининг Жиззахга етиши, Жиззах қизлари “толли олма” экиши, олмалар пишиб тор кўчага тушиши тасвирланади. Бу ерда “толли олма”-баланд бўйли, олманинг пишиши – қизларнинг бўйига етганлиги, “тор кўчага” тушиши – ҳали ҳеч кимга кўнгил қўймаганлиги, “булбул зор”лигини гўзал образларда ифодалаган. “Дўппи” – оила қуриш, турмушга чиқиш истаги борлигини билдиради. Дўппининг токчада ёки бўғчада туриши қиз оила қуришга тайёр эканлигини англатади.

Жиззах вилояти худудларида ижро этилувчи бу қўшиқнинг биринчи қисмини секин тепмда яккахонлар билан жамоа бирлигида ижро этилади. Яккахонлар ижро этаётган вақтда жамоа паст товушда то биринчи қисм тугагунга қадар биринчи тўртликни куйлайди. Яккахонлар қўшиқ ижросида тўғри нафасдан фойдаланишлари керак. Чунки қатор сўзларининг узунлиги узоқ ушлаб туриладиган нафас талаб этади. Яккахонлар сўзларни тўғри талаффуз қилишга, сўзнинг охирига қадар нафасни етиказа олишга, ёқимли ва майин товуш ҳосил қилишга эришишлари лозим. Чунки, матнда Жиззах вилоятига хос шевага оид сўзлардан фойдаланилган.

Иккинчи қисми эса тез темпда бошланиб, аёллар тепм билан сўз оҳангида ижро этадилар. Йигитлар эса мусиқа билан бир оҳангда куйлайдилар. Буларнинг ҳаммаси хонандаларни овозларининг бир хиллигига, товушларни бир хилда ҳосил бўлишлигига, сўзларни тўғри талаффузига, тўғри нафас олиб, ундан фойдаланишга эришишига олиб келади.

## Ралложон

Бу қўшиқда гўзал ёрнинг ишқида, унинг кўриш иштиёқида ёнаётган ошиқ йигитнинг дил изҳорлари тараннум этилади. Мусаффо осмонда учаётган “қуш” ёки “қарға” узоқдаги ёр – гўзал қиз хабарининг тимсоли сифатида ифодаланган. Яна “очилган қизил гул” бўйи етган 18 ёшли қиз сифатида таърифланмоқда. Осмондаги “уч ўрдак” соғинган дилларни етиштирувчи бир илинж рамзидир. “Ўрдак” рамзи халқ қўшиқларида хабарчи сифатида талқин этилади.

Халқ йўлида ёзилган қўшиқ йигитлар овозлари учун мўлжалланган. Қўшиқ жуда содда ва енгил ёзилган. Лекин ижро вақтида ўзбек қўшиқчилигига хос мелизмлардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлади. Бу қўшиқни янада жозибали, чиройли, ёқимли ва таъсирчанлигини оширади.

## Лалайчи

Ушбу қўшиқ ёш қизчанинг бўйи етиб қолганда атрофидагилар- маҳалла куйидагилар унга бефарқ қарамаслигини, унинг ҳар бир ҳаракати бошқаларнинг эътиборида бўлиши ҳақидадир. Совчилар ҳақида фикр юритилсада, лекин йигит қалбини ўртаётган алам акс этган. Санам – ёш қиз, у кимнингдир қалбини эгаллаган. “Оқ қуш” руҳ маъносида қўлланилади. Бу қўшиқда “оқ қуш” – йигит қалбига тушган илоҳий руҳ – ишқ-муҳаббат тимсолидир. Овчи ўша оқ қушга тузоқ қўймоқчи бўлган кимсалар “совчилар” сифатида намоён бўлмоқда.

Халқимизда совчиларнинг қиз томон розилигини олиш учун тўққиз дастурхонда ноз-неъматлар, ширинликлар юбориш одати мавжуд. Шу “тўққиз товоқ” қиз томоннинг совчиларга муносабатини билдирувчи восита ролини ўйнаган. “Тўққиз” рақами абадийлик, боқийлик рамзи, билим, ақл ва тақдир белгиси деб ҳисобланган. Қўшиқда шу рамзийлик ўз ифодасини топган.

Бу қўшиқ ҳам йигитлар овозлари учун ёзилган бўлиб, нақарот қисми ансамбль бўлиб куйланади. Бандлар эса яккахон томонидан куйланади.

Қўшиқнинг бошланишидаги ансамбль ижро этадиган “Ҳей” оҳанги жудаям енгил ва паст товущдан бошлаб куйланади. Қавс ичига олинган матн иккинчи марта ижро этилганда куйланади.

Айтганимиздек бандларни яккахон ижро этар экан, сўз маънoларига эътибор берган ҳолда, тўғри нафас билан, сўзларни бурро-бурро қилиб, ошиқмасдан ижро этиши керак. Ундов такрорларини куйлаган вақтда майин ва чиройли товушлар билан куйлаш мақсадга мувофиқ.

**Айтишув**

(янга ва қайинсингил)

Қадимдан маълумки, қиз бола янгасини яқин олиб сирдош сифатида барча сирларини айта олган ва ундан кераклича маслаҳат сўраган. Янга ҳам қайинсингилга меҳрибон бўлган.

Бу қўшиқда турмушга узатилган қайинсингил янгасига кўнглидаги дардини, яъни ўзи истаган, орзу қилганидек йигитга тегмаганини айтмоқда. Куёви пучуқлиги, беҳосдан олдидан кучук чиқиб ундан қўрқиб кетганидек, қўрқиб лабига учуқ тошганлиги – ўйламаган иш бўлганини ифодаласа, янга қайинсинглисини овутиб куёвнинг кўринишига қараб баҳо бермаслик, чўтир бўлса ҳам, қора бўлса ҳам, кўр бўлса ҳам яхши фазилатли, меҳрибон бўлсин,-дея насиҳат қилмоқда. “Ўтирибди деганда, пучуқ бўлсин, эр бўлсин”- деб қайинсингилни юпатмоқда.

Ушбу айтишув кўриниб турганидек, аёллар овозлари учун мўлжалланган. Янгасига ўз дардини айтаётган қайинсингилнинг ички туйғулари, уни жон дили билан эшитаётган янганинг меҳрибончилигини ҳис қилган ҳолда куйлашлик, қўшиқнинг янада жозибадор, чиройли ва таъсирчан бўлишлигига олиб келади.

Ҳар икки хонандадан ҳам тўғри нафас олиб, ундан фойдаланиш, сўзларни талаффузи, майинлиги, тўғри товуш ҳосил қилиш кабилар қўшиқ ижросида талаб қилинади ва бунга эришиш лозим.

# АМАЛИЙ МАШҒУЛОТ

## Поезд келоди шошиб



## **Поезд келоди шошиб**

Поезд келоди шошиб, оҳ  оҳ,
Тоғу тошлардан ошиб.
Наманганнинг қизлари (ей)
Замонага муносиб.

Нақорот:

Гулшан гуллар гулиман, оҳ  оҳ,
Элни жону дилиман, оҳ  оҳ,
Чаккангдаги гулингман.

Қизил гул бўлдим сўлдим, оҳ  оҳ,
Ёр ҳасратингда ўлдим.
Ёр бўлсанг бўлоринг айт,
Бевафо ёрдин ўлдим.

Нақорот:

Гулшан гуллар гулиман, оҳ  оҳ,
Элни жону дилиман, оҳ  оҳ,
Чаккангдаги гулингман.

Олма оқиб келоди, оҳ  оҳ,
Беҳи қалқиб келоди.
Юракдан севган ёрим,
Қошин қоқиб келоди.

Нақорот:

Гулшан гуллар гулиман, оҳ  оҳ,
Элни жону дилиман, оҳ  оҳ,
Чаккангдаги гулингман.

# Омон ёр


Жон у кам Ан-ди жон-лик у ка мей о мон ёр,
Се нинг шах ло кў зинг - да ней о мон ёр.
Ос мон - да - ги
Қиш-ло - ғи миз
уч ўр - да кей о мон ёр. Уч-ча - ла си ҳам бир - да кей о мон ёр.
қиз-ла - ри-ей О чил - ган қи - зил гул - да кей
Жон у кам Ан-ди жон-лик у ка мей о мон ёр, Се нинг ши рин
сў - зинг - да-ней о-мон ёр.
Coda
Се нинг
ritenuto.
шах - ло кў - зинг - да ней о-мон ёр.

## Омон ёр

Нақорот:

Жон укам, Андижонлик укам (ей), омон ёр,
Санинг ширин сўзингдан (ей), омон ёр.

Осмондаги уч ўрдак (ей), омон ёр,
Учаласи ҳам бирдак (ей), омон ёр.
Қишлоғимиз қизлари (ей), омон ёр.
Очилган қизил гулдек (ей), омон ёр.

Нақорот:

Жон укам, Андижонлик укам (ей), омон ёр,
Санинг ширин сўзингдан (ей), омон ёр.

Ариқ бўйи гул ҳовуз (ей), омон ёр,
Гул тергани келганимиз (ей), омон ёр.
Гулни баҳона қилиб (ей), омон ёр,
Ёр кўргани келганмиз (ей), омон ёр.

Нақорот:

Жон укам, Андижонлик укам (ей), омон ёр,
Санинг ширин сўзингдан (ей), омон ёр.

# Доирани чалинг



## Доирани чалинг

Нақорот:

Доирани чалинг жон момо,
Ўйинга тушсин қиз бола.
Қиз боланинг сочига, жон жоней,
Ярашибди чучмомо.

Наврўз куни қизларжон (ей),
Ўсма баргин терайлик (ей).
Сочга тақиб гул маржон (а), жон жоней,
Қошга ўсма қўяйлик (ей).

Нақорот:

Доирани чалинг жон момо,
Ўйинга тушсин қиз бола.
Қиз боланинг сочига, жон жоней,
Ярашибди чучмомо.

Сомса ёпиб ялпиздан (а),
Омонлига сомонлик (а).
Юз Наврўзни ўтказган (а), жон жоней,
Момоларга бералик (а).

Нақорот:

Доирани чалинг жон момо,
Ўйинга тушсин қиз бола.
Қиз боланинг сочига, жон жоней,
Ярашибди чучмомо.

# Чечалар


Vivo
Ҳамма
Ос мон-да ой лар уй на син, чў-ри че ча лар қай на син. Дав ра тў ри да жў ра-ла ро
Йигитлар:
бе-ли ни маҳ-кам боғ-ла син. Тоғ дан ке ла-миз қа ра лаб, сур-ма те ра миз са ра лаб.
Ҳамма
Қош ла ри қа-ро су-лув қи зо де-вор-дан қа рар қў-ра лаб. Ос мон-да ой лар уй на син,
чў-ри че ча лар қай на син. Дав ра тў ри да жў ра-ла ро бе-ли ни маҳ-кам боғ-ла син.
Йигитлар:
Ни ма-де сан гиз шу ер га миз, Сў-ров га жа воб ай та миз. Га пи миз-сиз га ёқ-ма-са ё
Ҳамма
сур ма-бер сан гиз қай-та-миз. Ос мон-да ой лар уй на син, чў-ри че ча лар қай на син.
Coda
Дав ра тў ри да жў ра-ла ро бе-ли ни маҳ кам боғ ла син. Ҳей...

## Чечалар

Нақорот:

Осмонда ойлар ўйнасин,
Чўри чечалар қайнасин.
Давра тўрида жўралар (о),
Белини маҳкам боғласин.

Тоғдан келамиз қаралаб,
Сурма терамиз саралаб.
Қошлари қаро сулув қиз (о),
Девордан қарар мўралаб.

Нақорот:

Осмонда ойлар ўйнасин,
Чўри чечалар қайнасин.
Давра тўрида жўралар (о),
Белини маҳкам боғласин.

Нима десангиз шу ергамиз,
Саволга жавоб айтамиз.
Гапимиз сизга ёқмаса (ё),
Сурма берсангиз қайтамиз.

Нақорот:

Осмонда ойлар ўйнасин,
Чўри чечалар қайнасин.
Давра тўрида жўралар (о),
Белини маҳкам боғласин.

**Ёр-ёр I**




# Ёр – ёр I

Ҳай-ҳай ўлан (о), жон ўлан,
Қизлар келар ёр (а), қизлар келар (о) ёр-ёр.
Келинчакнинг(о) кўзлари,
Ёшга тўлар ёр (а), ёшга тўлар(о) ёр-ёр.

Ҳай-ҳай ўлан (о), жон ўлан,
Муз панжара(я) ёр-ёр.
Ҳар жафога кўнади(ё),
Қиз бечора (я) ёр-ёр.

# Ёр-ёр II


Ҳай -Ҳай ў лан, жон ў - ла но, ке лин кел ди. Ёр -
ё ра ке лин кел ди, Қў шиқ би лан тўй би - ла но ке лин
кел ди. Ёр - ё - ра ке лин кел- ди. Ҳай-ҳай
ў лан жон ў - ла но жо но на дур, Ёр - ё- ра жо но - на дур,
Ўз тенг - ла ри и-чи - да ё я го - на дир. Ёр - ё- ра я го
на - дур. Ҳай- ҳай ў лан жон ў- ла но гул қай
да бор, Ёр - ё- ра гул қай - да- бор, Бир ях - ши га бир ё - мо на
ҳар жой - да бор. Ёр - ё - ра ҳар жой да - бор. Ёр -
ё - ра ҳар-жой да - бор.

## Ёр – ёр II

Ҳай-ҳай ўлан, жон ўлан (о), келин келди,
Ёр-ёра, келин келди.
Қўшиқ билан тўй билан (о), ҳа, келин келди,
Ёр-ёра, келин келди.
 Ҳай-ҳай ўлан, жон ўлан (о), жанонадур,
 Ёр-ёра, жанонадур.
 Ўз тенглари ичида (ё), ҳа, ягонадур,
 Ёр-ёра, ягонадур.
Ҳай-ҳай ўлан, жон ўлан (о), гул қайда бор,
Ёр-ёра, гул қайда бор.
Бир яхшига бир ёмон (а), ҳар жойда бор,
Ёр-ёра, ҳар жойда бор.

## Ёр-ёр III



## Ёр – ёр III

Ҳай-ҳай ўлан, жон ўлан, келин келди, ёр-ёр,
Ёр-ёра, келин келди, ёр-ёр.
Қўшиқ билан тўй билан, сепи келди, ёр-ёр,
Ёр-ёра, сепи келди, ёр-ёр.

Ҳай-ҳай ўлан, жон ўлан, жанонадур, ёр-ёр,
Ёр-ёра, жанонадур, ёр-ёр.
Ўз тенглари ичида, ягонадур, ёр-ёр,
Ёр-ёра, ягонадур, ёр-ёр.

Ҳай-ҳай ўлан, жон ўлан, тўйига етказ, ёр-ёр,
Ёр-ёра, тўйига етказ, ёр-ёр.
Юракдаги ғуборимни, ўзинг кетказ, ёр-ёр,
Ёр-ёра, ўзинг кетказ, ёр-ёр.

## Воҳей бола



## **Воҳей бола**

Жийдани шохи ларзон, воҳей бола ёрей,
Ости тўла хас-хазон, воҳей бола ёр-ёра.
Келин куёв тўйида, воҳей бола ёрей,
Ўйнаб кулайлик шодон, воҳей бола ёр-ёра.

Нақорот:

Воҳей бола жон бола, тўйлар бўлсин, ёр-ёр,
Шундай бахтли замонда ўйнаб кулсин, ёр-ёр.

Деҳқонобод боғида, воҳей бола ёрей,
Тўй томоша кўп бўлсин, воҳей бола ёр-ёра.
"Сайхун" йигит қизлари, воҳей бола ёрей,
Даврада хизмат қилсин, воҳей бола ёр-ёра.

Нақорот:

Воҳей бола жон бола, тўйлар бўлсин, ёр-ёр,
Шундай бахтли замонда ўйнаб кулсин, ёр-ёр.

Наврўз айём кунлари тўйлар бўлсин ёр-ёр,
Шундай бахтли замонда ўйнаб кулсин ёр-ёр.

# Яллижоним ялла



## Яллижоним ялла

Боққа киргим келоди, яллижоним ялла,
Гуллар тергим келоди, оромижоним ялла.
Ўша севган ёримни, яллижоним ялла,
Кунда кўргим келоди, оромижоним ялла.

Гул ҳовузнинг бўйида (я), яллижоним ялла,
Қизил гуллар ўсибди (ей), оромижоним ялла.
Қизил гуллар ўсганда, яллижоним ялла (ей),
Ёрга кўнгил тушибди (ей), оромижоним ялла.

Боққа кирган ҳам ўзим (а), яллижоним ялла,
Гуллар терган ҳам ўзим (а), оромижоним ялла.
Шунисига ҳайронман, яллижоним ялла (ей),
Ёрга ўтмайди сўзим (а), оромижоним ялла.

Ўша севган ёримни, яллижоним ялла (ей),
Кунда кўргим келоди, оромижоним ялла.

# Уста Рашид темирчи



## Уста Рашид темирчи

Уста Рашид темирчи,
Ўтга темир ташлачи.
Қиш ўтиб баҳор келди,
Зўр асбоблар ясачи.

Қулоқ сол, эй, темирчи,
Менга керак ток қайчи.
Ҳам боғда ишлаш учун,
Кетмон, ўроқ ясачи.

Темирчи, хо, темирчи,
Навбатда мен биринчи.
Менинг айтганларимни,
Ундан олдин ясачи.

Уста Рашид темирчи,
Ўтга темир ташлачи.
Қиш ўтиб баҳор келди,
Зўр асбоблар ясачи.

Уста ишингга раҳмат,
Меҳнатингдан топ роҳат.
Энди биздан ҳаракат,
Оллоҳ берсин баракат.

## Соч попук




## Соч попук

Соч попугим учида (ё), кўзмунчоғим бир шода,
Йиғламаган қиз борму (ё), бу бевафо дунёда.
Нақорот:
Инжа биё, инжа биё, жонам базане.

Ўчоқ бошида қумғон (ей), атрофи баланд қўрғон,
Севганимга етолмай (эй), юрак бағрим бўлди қон.
Нақорот:
Инжа биё, инжа биё, жонам базане.

Тор ҳовлида катта тол, соя бераман дейди,
Отам тенги кекса чол, мени оламан дейди.
Тор ҳовлида катта тол, соя бераман дейди,
Отанг тенги кекса чол, сени оламан дейди.
Нақорот:
Инжа биё, инжа биё, жонам базане.

## Ялло самандаро




## Ялло самандаро

Нақорот:
Ялло, ялло, ялло, ялло самандар(о),
Укажон сени йўлингга бўлдим қаландар(о).

Қошгинангни қароси ювса кетарму (ё),
Сенингдек тоза гул боғда битарму (ё).
Сенингдек (ей) тоза гул боғда битганда (ё),
Сўраб борсам боғбондан менга сотарму (ё).

Нақорот:

Ялло, ялло, ялло, ялло самандар(о),
Укажон сени йўлингга бўлдим қаландар(о).

Қошгинангни қароси, бошгинамни балоси,
Лола каби куйдирди (ей), надур унинг давоси.

Нақорот:

Ялло, ялло, ялло, ялло самандар(о),
Укажон сени йўлингга бўлдим қаландар(о).

## Дутор чалиб



## Дутор чалиб

Дутор чалиб ўтирсам (о),
Ёрим келди ёнимга.
Ширин сўзини қилиб (о),
Ўтни солди жонимга.
    Ёр-ёрахон, ўтни солди жонимга.

Дутор чалиб ўтирсам (о),
Ипи узилиб кетди.
Ўзга ёринг бор экан (о),
Кўнглим бузилиб кетди.
    Ёр-ёрахон, кўнглим бузилиб кетди.

Фабриканинг йўлидан (о),
Рўмолча топиб олдим.
Топиб олди деманглар,
Меҳнатга сотиб олдим (о),
    Гулёрахон бўйларингдан, гулёр.

Фабриканинг эшиги (ё),
Очилса ёпилмайди.
Фабриканинг қизлари
Чирмонга сотилмайди (ё),
    Гулёрахон бўйларингдан, гулёр.

Дутор чалиб ўтирсам (о),
Ёрим келди ёнимга.

# Сени севиб қолдим



## Сени севиб қолдим

Ўзинг қаро қошгинасан,
Юрак бағри тошгинасан.
Хижронингда қонлар ютиб (о),
Сени севиб (о) қолдим нетай.

Ёдинг билан ўнгу-тушим,
Келар менинг тенгу-тўшим.
Ҳеч бўлмаса ўзинг тушин (о),
Сени севиб (о) қолдим нетай.

Мен Лайлига тенг келмасдим,
Мажнунларга етмас эдим.
Қошингга бир келмас эдим (о),
Сени севиб (о) қолдим нетай.

Ўзинг қаро қошгинасан,
Юрак бағри тошгинасан.
Хижронингда қонлар ютиб (о),
Сени севиб (о) қолдим нетай.

# Азим дарё


А зим дар-ё ман де-бо-на Ҳай ба тин-га и шон ма- я Вой-до - дай,
бир кун су винг қу-ри бон оқ мас дар-ё Бў-лур -сан - ей а-ла-мо.
Ёш лик-да мағ- рур ла ниб чи-ро йин-га и-шон ма Бир кун чи рой
ке ти бон Қу-руқ сав-до бў-лур са - не а-ла-мо
Қо шинг қа-ро
бўл-гун-ча, Кў зинг қа-ро бўл- са чи - я, вой-до дай, Мен-га ёл ғон
айт-гун - ча - я, Ю-зинг қа-ро бўл - са -чи - ё,
Coda
а - ла - мо, а - ла - мо, а - ла - мо.

## Азим дарё

Азим дарёман дебон,
Ҳайбатингга ишонма (я), вой додай,
Бир кун сувинг қурибон,
Оқмас дарё бўлурсан (о), аламо.

Ёшликда мағрурланиб,
Чиройингга ишонма,
Бир кун чирой кетибон,
Қуруқ савдо бўлурсан (о), аламо.

Қошинг қаро бўлгунча,
Кўзинг қаро бўлсачи.
Менга ёлғон айтгунча (я),
Юзинг қаро бўлсачи (ё), аламо.

Азим дарёман дебон,
Ҳайбатингга ишонма (я), вой додай,
Бир кун сувинг қурибон,
Оқмас дарё бўлурсан (о), аламо.

## Чаман-чаман




## Чаман – чаман

Ошиқ бўлдим жамолингга,
Ажаб қадду ниҳолингга.
Қизил юзим сариқ бўлди,
Тўёлмадим висолингга.

Нақорот:
Чаман-чаман, гул бўлсин (о),
Элимда тўйлар бўлсин.

Тоққа чиқдим тол учун,
Булбули ёмон учун.
Ўз элимдан кечмайман (о),
Сен бевафо ёр учун.

Нақорот:
Чаман-чаман, гул бўлсин (о),
Элимда тўйлар бўлсин.

Силкинади мажнун тол,
Сочларингни йиғиб ол.
Шундай бахтли замонда (ей),
Сен ҳам ўйнаб кулиб қол.

Нақорот:
Чаман-чаман, гул бўлсин (о),
Элимда тўйлар бўлсин.

# Ой чиқса


Кўк -да юл дуз кў рин май -ди, Қу ёш бо риб бот гун ча. Тез тез ке либ
ҳол сўр санг- чи, Уй -да ёл -ғиз ёт гун ча. Ой чиқ -са ой -дин бў лур, Кун чиқ са кун -дуз бў лур.
Шу ё-рим ни қош ла ри - ё, Тел пак ка қун - дуз бў лур. Йи роқ - да-ги сув тўл қи ни,
Кў ри на - ди ял-ти раб, Кў ри на - ди ял-ти раб. Ке лар йў линг пой лаб чиқ-сам,
Тонг от гун ча, қал ти раб. Ой чиқ са ой- дин бў лур, Кун чиқ са кун дуз бў лур. Шу ё рим ни
қош ла ри - ё, Тел пак ка қун дуз бў лур.
Бор дим дар ё кеч га ли - я, Ў тир дим сув ич га ли. Ё рим дан кел - са ха ба- ро,
Қа но - тим йўқ уч - га ли. Ой чиқ -са ой - дин бў лур, Кун чиқ-са кун -
дуз бў лур. Шу ё - рим- ни қош-ла- ри - ё, Тел пак- ка қун - дуз бў лур.

## Ой чиқса

Кўкда юлдуз кўринмайди,
Қуёш бориб ботгунча.
Тез-тез келиб ҳол сўрсангчи,
Уйда ёлғиз ётгунча.

Нақорот:

Ой чиқса ойдин бўлур,
Кун чиқса кундуз бўлур,
Шу ёримнинг қошлари (ё),
Телпакка қундуз бўлур.

Йироқдаги сув тўлқини
Кўринади ялтираб,
Келар йўлинг пойлаб чиқсам,
Тонг отгунча қалтираб.

Нақорот:

Ой чиқса ойдин бўлур,
Кун чиқса кундуз бўлур,
Шу ёримнинг қошлари (ё),
Телпакка қундуз бўлур.

Бордим дарё кечгали (я),
Ўтирдим сув ичгали.
Ёримдан келса хабар (о),
Қанотим йўқ учгали.

Нақорот:

Ой чиқса ойдин бўлур,
Кун чиқса кундуз бўлур,
Шу ёримнинг қошлари (ё),
Телпакка қундуз бўлур.

**Иккала маржонингдан**




## Иккала маржонингдан

Ака бозор борсангиз (а),
Менга маржон келтиринг,
Аямга билдирмай ўзимга беринг.

Аям билса сизни асло қўймайди,
Ҳеч кимга билдирмай ўзимга беринг.

Нақорот:

Иккала маржонингдан аканг айлансин,
Қизлар бозорингдан аканг айлансин.

Ака бозор борсангиз (а),
Менга дўппи келтиринг,
Аямга билдирмай ўзимга беринг.

Аям билса сизни асло қўймайди,
Ҳеч кимга билдирмай ўзимга беринг.

Нақорот:

Иккала маржонингдан аканг айлансин,
Қизлар бозорингдан аканг айлансин.

# Сизни айвон


Moderato
Сиз ни ай вон биз ни ўр ги-лай, ай вон э мас - му,
Ўр та си-да чин - ни ай ла-най, ра вон э мас - му.
Ке ла - си-зу ке та - сиз, Бир сўз де май - сиз.
Бу ҳам - ма си ю рак - да ўр ги-лай, ар мон э мас - му.
Тоғ да ар ча минг йил ай ла-най, умр кў рур - му,
Шо хи син - са зар гар ўр ги-лай, ку муш қи лур - му.
Жон...
Зар гар - нинг бил-га ни ўр ги-лай, ку муш бў лур - му.
Би либ бер ган кўн гил - лар ўр ги - лай, жу до бў лур - му.
Сиз ни
ай вон биз ни ўр ги лай ай вон э мас- му.

## Сизни айвон

Сизни айвон бизни, ўргилай, айвон эмасму?
Ўртасида чинни, айланай, равон эмасму?
Келасизу кетасиз бир сўз демайсиз,
Бу ҳаммаси юракда, ўргилай, армон эмасму?

Тоғда арча минг йил, айланай, умр кўрурму?
Шохи синса заргар, ўргилай, кумуш қилурму?
Жон!
Заргарнинг билгани, ўргилай, кумуш бўлурму?
Билиб берган кўнгиллар, ўргилай, жудо бўлурму?

Сен гўзални излаб, ўргилай, чўлларни кездим,
Ўшал кезган чўллар, ўргилай, бўстон эмасму?
Жон!
Сенинг жонинг менинг, ўргилай, жоним эмасму?
Менинг жоним сизга, ўргилай, қурбон эмасму?

Сизни айвон бизни, ўргилай, айвон эмасму?

# Ёрнинг гули галди



## Ёрнинг гули галди

Апча сенга сирим баён айлайин, айлайин,
Ёрнинг гули галди ўзи галмади ёрей, галмади.
Бошимдан ўтганин баён айлайин, айлайин,
Ёрнинг гули галди ўзи галмади, ёрей, галмади.

Ғабро фалак мани қилди бегона, бегона,
Ўзи галмий гули галди ғайбона, ғайбона.
Менинг учун етим бўлиб боғбона, боғбона,
Ёрнинг гули галди ўзи галмади, ёрей, галмади.

Шум рақиблар мени ёрдан айирмиш, айирмиш,
Фалак менинг ниҳолимни қайирмиш, қайирмиш.
Ёрим энди билмам кимга буюрмиш, буюрмиш,
Ёрнинг гули галди ўзи галмади ёрей, галмади.

Шоҳсанам қиз дерлар мани отима, отима,
Бир оҳ урсам олам ёнар ўтима, ўтима.
Сендан бошқа кимлар етар додима, додима,
Ёрнинг гули галди ўзи галмади ёрей, галмади.

# Чархим


Moderato
Қизлар
Чар хим ғум ғум э та ди, Гул боқ қа - ё До ғис тон - га е та - ди - ё.
Гул боқ - қа До ғис тон нинг қиз ла ри - ё, қиз ла - ри ё. Ач - чиқ ол - ма
э ко - ди - ё, Гул боқ - қа До - ғис - тон - нинг қиз ла ри, қиз ла - ри ё.
Vivo
Ач чиқ ол - ма э ко - ди - ё. Гул боқ - қа.
До ғис тон нинг қиз ла - ри ол ма, а нор юз ла ри. Сув де са шар - бат бер ган,
До ғис тон нинг қиз ла - ри. Жон ўр тоқ, жон ўр тоқ, Ат роф ла ринг - га бир боқ.
Йигитлар
Кўп ко йи - ма, ко йи ма - ей. Жон ўр тоқ, жон ўр тоқ. Да ла да - ги ғў за - ни,
қиз лар қил ди я - га - на. Уй да тур ган ё рим - ни, Душ ман қил - ди бе - го - на.
Қизлар
Жон ўр тоқ, жон ўр тоқ, Ат роф ла ринг - га бир боқ. Кўп ко йи - ма, ко йи ма - ей.
Ҳамма
Жон ўр тоқ, жон ўр тоқ. Кўп ко йи - ма, ко йи ма - ей. Жон ўр тоқ, жон ўр тоқ.

## Чархим

Чархим ғум-ғум этади, гул боққа (ё),
Доғистонга етади (ё), гул боққа.
Доғистоннинг қизлари, қизлари (ё),
Аччиқ олма экади (ё), гул боққа.

Доғистоннинг қизлари,
Олма, анор юзлари,
Сув деса шарбат берган,
Доғистоннинг қизлари.

Нақорот:

Жон ўртоқ, жон ўртоқ,
Атрофларингга бир боқ,
Кўп койима, койима (ей),
Жон ўртоқ, жон ўртоқ.

Даладаги ғўзани
Қизлар қилди ягана.
Уйда турган ёримни
Душман қилди бегона.

Нақорот:

Жон ўртоқ, жон ўртоқ,
Атрофларингга бир боқ,
Кўп койима, койима (ей),
Жон ўртоқ, жон ўртоқ.

# Жиров айтишув






# Жиров айтишув

Жақида, ҳиқида, хашша,
Жақида, ҳиқида уммора.
Жақида, ҳиқида уммора,
Бақида, ҳиқида ҳаққа.

**Йигит:** Эй, жақидани айтган сулув ой қизлар,
Дўмбирамга сайқал берган бой қизлар.
Мен Зоминдан ўлан айтғони келдим,
Жақидаға жавоб айтғони келдим.

**Қиз:** Эй, бек боласи дўмбирангни дарди бор,
Жировингни тушунганга қадри бор.
Жиров айтиб манов элга келибсан,
Бас келишга бизга қандай ҳолинг бор.

**Йигит:** Эй, булбул ҳам лол қолади (ей) сўзингдан,
Бунча толли мани туйдим тилингдан.
Ҳаддим тутиб қучоқласам белингдан,
Билса отанг қувмасмикан уйингдан.

**Қиз:** Эй, ҳай ўланчи билиб билмай сўйлама,
Ошиқ нодон айтчи сендек бўлама.
Ўзинг билган шу элатнинг қизлари (ей),
Тўй бўлмайин бел кучтириб қўяма.

**Йигит:** Эй, мен Зоминни эл сўраған боласи,
**Қиз:** Товларинда очилган гул лоласи.
**Иккаласи:** Кел кенгашиб тўйни тўйга улайлик,
Дуо қилсин элингни юрт оғаси.

Чархим ғум-ғум этади (я), Жиззахимга жетади,
Жиззахимни қизлари (ё), толли олма экади.
Толли олма пишибди (ё), тор кўчага тушибди,
Тол кўчаси тор экан (о), йўлда булбул зор экан.
Чархим ғум-ғум этади (я), Жиззахимга жетади,
Жиззахимни қизлари (ё), толли олма экади.
Шу Жиззахнинг қизлари (ё), Чуст дўппига зор экан,
Чуст дўпписи токчада (ё), жалтирайди бўғчада.
Чархим ғум-ғум этади (я), Жиззахимга жетади,
Жиззахимни қизлари (ё), толли олма экади.
Жақида, хиқида, хашша,
Жақида, хиқида уммора.
Жақида, хиқида уммора,
Бақида, хиқида хаққа.

# Ралложон



Якка (ҳамма)
У чиб ў-та - ди қар-ға ей рал-ло - жон, Қў ниб ў-та - ди боқ - қа ей рал-ло - жон.
Биз ни сев ган гў зал ё рей рал-ло жон, О чил ган қи зил гул - де кей
рал-ло жон. Рал-ло, рал ло, рал-ло-жо ней рал-ло- жон, Биз ни сев ган гул ёр -га ей
рал-ло - жон.
Якка (ҳамма)
Ос-мон да-ги - уч ўр -дак ей рал-ло - жон, У ча ла-си - ҳам бир - дак ей
рал-ло - жон. Бор -санг лар са лом денг ла ро рал-ло жон, Биз ни сў ра ган
ёр - га ей рал-ло жон. Рал-ло, рал ло, рал-ло-жо ней рал-ло- жон, Биз ни сев ган
Coda
гул ёр - га ей рал-ло - жон. Биз ни сев ган гул ёр - га ей рал-ло - жон.

## Ралложон

Учиб ўтади қарға (ей), ралложон,
Қўниб ўтади боққа (ей), ралложон.
Бизни севган гўзал ёрей, ралложон,
Очилган қизил гулдек (ей), ралложон.

Нақорот:

Ралло, ралло, ралложон (ей), ралложон,
Бизни севган гул ёрга (ей), ралложон.

Осмондаги уч ўрдак (ей), ралложон,
Учаласи ҳам бирдек (ей), ралложон.
Борсанглар салом денглар (о), ралложон,
Бизни севган ул ёрга (ей), ралложон.

Нақорот:

Ралло, ралло, ралложон (ей), ралложон,
Бизни севган гул ёрга (ей), ралложон.

# Лалайчи келди



**Лалайчи**

Нақорот:

Ҳей! Ҳей!

Лалай, лалайчи, келди,
(Лала лалайчи, келди)
Кўчага мойчи келди.
Кўчага мойни ташлаб,
Санамга совчи келди.

Укажоним ростдан совчи келдиму,
Оқ қушимга бирор овчи келдиму.
Тўққиз товоқ, тўққиз тугун кўтариб,
Кўчамизга тўй тиловчи келдиму.

Нақорот:

Лалай, лалайчи, келди,
(Лала лалайчи, келди)
Кўчага мойчи келди.
Кўчага мойни ташлаб,
Санамга совчи келди.

Лалайчилар қовоқ уйиб кетсин (ей),
Ўз ёғига ўзи куйиб кетсин (ей).
Шу совчилар санамжонга келгунча,
Менинг икки кўзим ўйиб кетсин (ей).

Нақорот:

Лалай, лалайчи, келди,
(Лала лалайчи, келди)
Кўчага мойчи келди.
Кўчага мойни ташлаб,
Санамга совчи келди.

Ҳей! Ҳей!

## Айтишув

(Янга ва қайнисингил)




## Айтишув

(янга ва қайинсингил)

**Янга:** Айланойин қиз жоним,
Дарди бордай келасиз.
Айтаверинг қийналмай,
Янгангизман биласиз.

**Қайинсингил:** Олдимдан кучук чиқди,
Олдимдан учиб чиқди.
Лабимга учуқ чиқди,
Куёвим пучуқ чиқди.

**Янга:** Гажир бўлсин, кўр бўлсин,
Қора бўлсин, эл бўлсин.
Ўтирибди деганда,
Пучуқ бўлсин, эр бўлсин.

# Тест саволлар

**1. “Жамоа ижрочилиги ва услубиёти” фани қайси мутахассислик предметлари билан ўзаро боғлиқ?**

а) хор синфи, сольфеджио, гармония

б) полифония мусиқа назарияси, мусиқа тарихи

с) вокал ансамбли, хор синфи, хор жамоалари билан ишлаш услубиёти

д) мутахассисликка кириш, мақом асослари

**2. “Жамоа ижрочилиги ва услубиёти” фанининг асосий мақсади нимадан иборат?**

а) вокал-хор жамоасига билимли, малакали раҳбар тайёрлаш

б) тарбиячи-педагог тайёрлаш

с) ёшларни қўшиқ айтиш, чолғу чалиш ва ватанпарварлик руҳида тарбиялаш

д) тўғри жавоб йўқ

**3. 12 та ва ундан ортиқ кишидан ташкил топган куйловчи жамоа қандай аталади?**

а) квартет

б) ансамбль

с) хор

д) квинтет

**4. Хормейстер – қайси жамоа раҳбари ?**

а) оркестр жамоаси

б) хор жамоаси

с) рақс жамоаси

д) халқ ашула ва рақс ансамбли

**5. Аралаш хор қайси овозлардан ташкил топади?**

а) альт, бас

б) тенор, сопрано

с) сопрано, бас

д) сопрано, альт, тенор, бас

**6. 2, 3 ва ундан ортиқ овозли асар партияларини бир хил ноталарда куйланиши:**

а) унисон деб аталади

б) кўп овозли деб аталади

с) полифония деб аталади

д) гармония деб аталади

**7. Вокал-хор жамоасидаги аёллар овози номларини кўрсатинг?**

а) альтино, тенор

б) сопрано, альт

с) баритон, бас

д) контральто

**8. Вокал-хор жамоасидаги эркаклар овози номларини кўрсатинг?**

а) сопрано, альт

б) бас, баритон, тенор

с) альт, сопрано

д) контральто

**9. Раҳбар вокал-хор жамоасига репертуар танлашда нималарни назарда тутмоғи лозим?**

а) банд ва нақоратдан иборат эканлигини

б) қўшиқчилик анъаналари, бадиий ижро йўллари вокал-хор жамоасига мослигини

с) асарларнинг мавзусини ранг-баранглиги, оддийдан мураккабга ўтиб бориши, ғоявий ва бадиий юксаклиги ва концертларда ижро этилишини

д) б ва с жавоблар тўғри

**10. Қўшиқ айтиш хонандалардан нималарни талаб этади?**

а) яхши талаффуз, тўғри нафас

б) овозни зўриқтирмаслик, майин ва текис куйлаш

с) равон ва тўлиқ овозда куйлаш

д) ҳамма жавоблар тўғри

**11. Қандай асарлар вокал ансамблида ижро этилади?**

а) чолғу

б) вокал, эстрада

с) ария
д) оратория

**12. Вокал ансамбли неча кишидан ташкил топади?**
а) 12, 13, 14, …
б) 2, 3, 4, …
с) 10, 11, 12, …
д) 1

**13. Вокал триоси неча кишидан иборат ?**
а) 2 та
б) 10 та
с) 3 та
д) 8 та

**14. Вокал дуэти неча кишидан иборат?**
а) 7 та
б) 5 та
с) 2 та
д) 3 та

**15. Вокал квинтети неча кишидан иборат?**
а) 2та
б) 6 та
с) 5 та
д) 3 та

**16. Вокал квартети неча кишидан иборат?**
а) 4 та
б) 2 та
с) 3 та
д) 6 та

**17. Ансамбль деганда нимани тушунасиз?**
а) учтовушлик ва аккордларни биргаликда тўғри куйланиши
б) дирижёр билан бирга куйлаш
с) жамоанинг биргаликда, уйғунликда куйлаши
д) динамик нюансларни биргаликда куйланиши

**18. Хор жамоасида ишлатиладиган давомли нафас турини аниқланг?**

а) қисқа ва чуқур нафас
б) занжирсимон нафас
с) шошилмасдан олинган нафас
д) бурундан ўпкага олинган нафас

**19. Эркакларнинг қандай юқори овозини биласиз?**

а) баритон
б) тенор
с) бас
д) сопрано

**20. Эркакларнинг энг паст овозини аниқланг?**

а) контральто
б) альт
с) сопрано
д) бас

**21. Қандай овоз аёллар паст овози дейилади?**

а) бас
б) альт
с) сопрано
д) тенор

**22. Аёлларнинг юқори овозини кўрсатинг?**

а) контральто
б) тенор
с) бас
д) сопрано

**23. Сопрано партиясининг умумий диапазони:**

а) си – кичик октава, до – 1 октава, соль – 2 октава
б) ля, си – кичик октава, фа – 2 октава
с) ми – кичик октава, ми – 2 октава
д) до, ре – 1 октава, си – 2, до – 3 октава

**24. Альт партиясининг умумий диапазони:**

а) соль – кичик октава, соль – 2 октава

б) ми, фа – кичик октава, ре, ми – 2 октава
с) ля – кичик октава, ля – 2 октава
д) до – 1 октава, соль – 2 октава

**25. Тенор партиясининг умумий диапазони:**
а) до, ре – кичик октава, си, до – 2 октава
б) ми – кичик октава, соль – 2 октава
с) фа – кичик октава, ля – 2 октава
д) соль – кичик октава, си – 2 октава

**26. Бас партиясининг умумий диапазони**
а) соль – катта октава, ля – 1 октава
б) фа – катта октава, соль – 1 октава
с) ля – 1 октава, соль – 1 октава
д) ми, фа – катта октава, ре, ми – 1 октава

**27. Вокал хорининг умумий диапазони:**
а) ре – 1 октава, соль – 2 октава
б) ми, фа – катта октава, си – 2 октава, до – 3 октава
с) ми – 1 октава, ми – 2 октава
д) до – 1 октава, фа – 2 октава

**28. Вокал-хор жамоасининг энг кам сони нечта бўлиши керак?**
а) 15
б) 10
с) 6
д) 12

**29. Вокал-хор жамоасида талаффуз (дикция)нинг аҳамияти нимада?**
а) қўшиқнинг лигато услубида куйланиши
б) сўзларнинг аниқ ва бурро талаффуз қилиниши
с) ноаниқ талаффуз қилиниши
д) сўзларнинг узиб куйланиши

**30. Қайси услуб кўп овозликка ўтишда қўлланилади?**
а) канон услуби
б) гармоник услуб
с) полифоник услуб

д) учтовушликларни куйлаш услубида

**31. “Доирани чалинг” қўшиғида ўзбек халқининг қайси маросимига хослиги куйланган?**

а) гул сайли маросимига
б) Наврўз байрамига
с) ҳосилни йиғиб-териб олиш маросимига
д) тўй маросимига

**32. Сочга тақилган кўзмунчоқ нимани англатади?**

а) қизларнинг эрки ўз қўлида эмаслигини англатади
б) ота-онасининг раъйига қизнинг қарши бормаслигини билдиради
с) қизнинг гўзаллигидан дарак беради
д) кўнгил қўйганига етишишини билдиради

**33. Болалар ва аёллар хори учун асарлар қайси мусиқий калитда ёзилади?**

а) бас калитида
б) скрипка калитида
с) альт калитида
д) тенор калитида

**34. 2 қаторли аралаш хор асарларида эркаклар партияси қайси мусиқий калитда ёзилади?**

а) бас калитида
б) скрипка калитида
с) альт калитида
д) тенор калитида

**35. Аралаш хор асарлари қайси мусиқий калитларда ёзилади?**

а) скрипка  ва бас калитида
б) скрипка калитида
с) скрипка ва тенор калитида
д) альт ва тенор калитида

**36. Меццо пиано, меццо форте, крищендо, диминуендо – асарда нима мақсадда қўлланилади?**

а) ритмни ҳис қилиш учун

б) товуш баландлигини пастга тушириш ва юқорига кўтариш учун
с) тўғри ва аниқ нафас олиш учун
д) товуш ҳосил қилиш учун

## Тест саволларининг жавоб калити

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **1.** | **с** | **13.** | **с** | **25.** | **а** |
| **2.** | **а** | **14.** | **с** | **26.** | **д** |
| **3.** | **с** | **15.** | **с** | **27.** | **б** |
| **4.** | **б** | **16.** | **а** | **28.** | **д** |
| **5.** | **д** | **17.** | **с** | **29.** | **б** |
| **6.** | **а** | **18.** | **б** | **30.** | **а** |
| **7.** | **б** | **19.** | **б** | **31.** | **б** |
| **8.** | **б** | **20.** | **д** | **32.** | **с** |
| **9.** | **д** | **21.** | **б** | **33.** | **б** |
| **10.** | **д** | **22.** | **д** | **34.** | **а** |
| **11.** | **б** | **23.** | **д** | **35.** | **а** |
| **12.** | **б** | **24.** | **б** | **36.** | **д** |

# Хулоса

Ижрочининг мусиқий овозини тарбиялашда талабанинг мусиқий эшитиш қобилиятини ривожлантириш ва эшитиш орқали ҳамма вокал сифатларини ўсишини бошқариш асосий ўринда туради. Мақсадга эришишни кўзлаб танланган асар орқали овоз ривожланишига эришиш мумкин.

Ижрочи овозини тарбиялаш учун ўқитувчи ўзи яхши овозга эга бўлиши ва талабанинг хатоларини тақлид қилишга қобилияти бўлиши керак. Мушак ва мускулларга оид кўрсатиш усуллари, овоз аппаратлари мажмуини ишлатиш усуллари ҳақида ҳам чуқур билимга эга бўлиши талаб этилади. Ҳамма ҳолатда ҳар бир талабага алоҳида ёндошиш, ўқитувчининг танлаган йўли тўғрилиги, овознинг тўғри тарбияланганлиги билан белгиланади. Оғзаки тушунтириш овозни тўғри ҳосил қилишда муҳим ҳолат, омил бўлиб хизмат қилади. Ўқитувчи сўз билан тушунтиришни, ўз ижросида кўрсатишни талабада овоз хосил қилишни, мушак ишлатиш усулларининг ҳамма йўлларини ва дарсга қандай мусиқий материал танлашни билиши зарур. Овоз созлаш машқлари аниқ педагогик йўналишда ҳар бир талабани имкониятига қараб қулай регистрда танланади. Талабага ҳар бир машқни мақсадини ва натижада шунга эришиш кераклигини тушунтириш керак.

Вокализ машқдан бадиий асарга тайёрловчи мусиқий материал ҳисобланади. Бадиий асар ўқитувчи томонидан талабанинг имкониятидан келиб чиққан ҳолда танланади. Ўқитувчи асарнинг мусиқий, вокал-техник, ижрочилик қийинчиликларини таҳлил қилишни билиши алоҳида аҳамиятга эга. Ўқитувчининг кўп педагогик мусиқий материалларини билиши ва уни амалда қўллаши унинг энг катта ютуғидир. Бундан ташқари талаба ўрганаётган асари устида мустақил ишлашни ҳам билиш керак. Шундагина ўқитувчи кўзлаган мақсадига ва кенг ҳамда бой репертуарга эриша олади.

Шуларни инобатга олган ҳолда “Асарларнинг қисқача таҳлили” бўлимида қўшиқларнинг куйлаш жараёнида нималарга аҳамият берилиши, нафасдан тўғри фойдаланиш, товуш ҳосил қилиш, жарангдор, равон ва ёқимли товуш ҳосил бўлишига эришиш йўллари, сўз талаффузига аҳамият беришнинг муҳимлиги масалалари хусусида атрофлича сўз юртилган.

## Фойдаланилган адабиётлар


1. *Алавия М.* Ўзбек халқ қўшиқлари. ЎзФАН, Т., 1959 й.
2. *Алавия М.* Ўзбек халқ маросим қўшиқлари. ЎзФАН, Т., 1959 й.
3. *Гулёр.* Фарғона халқ қўшиқлари. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Ҳ.Раззоқов. Адабиёт ва санъат. Т., 1967 й.
4. *Турдимов Ш.* Ўзбек халқ лирик қўшиқларида поэтик рамзлар. Филология фанлари номзоди диссертацияси. Т., 1987 й.
5. *Саримсоқов Б.* Ўзбек халқ маросим очерклари. “Фан” нашриёти. 1998 й.
6. *Жалилов М.* Қўшиқлар хрестоматияси. 1-китоб. Низомий номли ТДПУ–2002 й.
7. *Жалилов М.* Қўшиқлар хрестоматияси. 1-китоб. Низомий номли ТДПУ–2003 й.
8. *Раҳматуллоҳ Носир.* Хуршид атонгдур, ой-ано. Янги аср авлоди. Т.,2003 й.
9. *Раҳматуллоҳ Носир.* Олам юзин обод қил. Янги аср авлоди. Т.,2004 й.
10. *Жўраев М.* Наврўз қўшиқлари. “Фан” нашриёти. Т., 2005 й.
11. *Содиқов О.* Вокал ансамбли. Янги аср авлоди. Т., 2006 й.
12. *Шукуров Ж.Т.* Дирижёрлик. Истиқлол нашриёти. Т., 2006 й.

## Мундарижа


| | |
|---|---|
| Сўз боши | 73 |
| Кириш | 75 |
| Асарларнинг қисқача таҳлили | 78 |
| Амалий машғулот | 92 |
| Поезд келоди шошиб | 92 |
| Омон ёр | 94 |
| Доирани чалинг | 96 |
| Чечалар | 98 |
| Ёр-ёр I | 100 |
| Ёр-ёр II | 101 |
| Ёр-ёр III | 102 |
| Воҳей бола | 103 |
| Яллажоним ялла | 105 |
| Уста Рашид темирчи | 107 |
| Соч попук | 109 |
| Ялло самандаро | 110 |
| Дутор чалиб | 111 |
| Сени севиб қолдим | 113 |
| Азим дарё | 115 |
| Чаман-чаман | 117 |
| Ой чиқса | 118 |
| Иккала маржонингдан | 120 |
| Сизни айвон | 121 |
| Ёрнинг гули галди | 123 |
| Чархим | 125 |
| Жиров айтишув | 127 |
| Ралложон | 130 |
| Лалайчи келди | 132 |
| Айтишув | 134 |
| Тест саволлар | 135 |
| Тест саволларининг жавоб калити | 141 |
| Хулоса | 142 |
| Фойдаланилган адабиётлар | 143 |

**ОРТИҚМАТОВ НИЁЗАЛИ МЕЛИҚЎЗИЕВИЧ**

# ЖАМОА ИЖРОЧИЛИГИ ВА УСЛУБИЁТИ

Муҳаррир: Мусақулов А.

Босишга рухсат этилди: ______________ Қоғоз бичими: 60x84 $^1/_{16}$.

Ҳисоб-нашр табоғи: _____ б.т. Адади: 500

________________________________________________________ босмахонасида чоп этилди.